

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**MUQIMIY NOMIDAGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**5141600 – boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy
ish yo'nalishi talabalari uchun**

ONA TILI

Fanidan muammoli ma'ruza

M A T N L A R I

Tuzuvchi: To'raxo'jayeva A.

Qo'qon – 2007

Ona tili fanidan tayyorlangan ushbu ma'ruza matnlari 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi 1-kurs talabalariga mo'ljallangan.

Mazkur ma'ruza matnlari QDPI boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining 2007 yil 5-sentyabrdagi №1 yig'ilishida chop etishga ruxsat etilgan.

“Ona tili” fanidan muammoli ma'ruza matnlari. Qo'qon DPI – 2007, 58 b. To'raxo'jayeva A.

MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK TILINING MAQSAD VA VAZIFALARI. O'ZBEK TILI – DAVLAT TILI.

R E J A:

1. Til – ijtimoiy hodisa.
2. O'zbek tili – davlat tili.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili kursi shu tilning ilmiy asosda o'rganuvchi fan.
4. O'zbek tili va uning taraqqiyot bosqichlari.
5. O'zbek tili rivojlanishining asosiy omillari.
6. Hozirgi o'zbek adabiy tilining bo'limlari.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|--------------------------|---------------------------------|
| 1) Tilning ijtimoiyligi; | 7) Til bo'limlari; |
| 2) Tilning rivojlanishi; | 8) Kursning ob'ekti; |
| 3) Ona tili; | 9) Kursning maqsadi; |
| 4) Davlat tili; | 10) Qadimgi turkiy til; |
| 5) Lisoniy omil; | 11) Eski o'zbek adabiy tili; |
| 6) Nosiloniy omil; | 12) Hozirgi o'zbek adabiy tili. |

Til ijtimoiy hodisadir. Chunki u biror yakka shaxs yoki guruh tomonidan yaratilmaydi. Til jamiyatning maxsuli bo'lib, ibtidoiy jamoa davrida kishilarning birlashib yashashi va birga mehnat qilish jarayonida yuzaga kelgan. U faqat jamiyatda, odamlar orasidagina mavjud bo'ladigan ijtimoiy quroldir. Til jamiyat tomonidan yaratilganligi uchun ham, uning yashashi va rivojlanishi shu tilda gaplashuvchilarning mavjudligi va taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Chunki jamiyatda ro'y bergan o'zgarishlar ta'sirida til ham o'zgarib va rivojlanib boradi. Buni ayniqsa, tilning lug'at sathida yaqqol kuzatish mumkin. Demak, tilning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langandir.

O'z navbatida jamiyat ham tilsiz rivojlana olmaydi. Zero, u kishilarning o'zaro muomala va munosabatlarini ta'minlovchi eng muhim aloqa vositasi sanaladi. Kishilar o'zlarining eng nozik his-tuyg'ularidan tortib eng oddiy salomlashishgacha barchasini til orqali ifoda etadilar.

Hazrat Alisher Navoiy:

*Til ayladi insonni judo hayvondin
Bilkim guhari yo'q sharifroq ondin.*

deb bejiz yozmagan edi.

Dunyoda 3000 dan ortiq til bo'lib, ular o'zaro genetik jihati, tipologiyasi, mohiyati, yozuvga ega yoki ega emasligi, jamiyat hayotida tutgan o'rni va unda gaplashuvchilarning umumiy miqdori kabi belgilari bilan farqlanadi. O'zbek tili ham shular jumlasidan bo'lib, o'zbek xalqining milliy tili, O'zbekiston Respublikasining davlat tili hisoblanadi. Respublikadagi 24 million aholining 18 millioni o'zbek tilida so'zlashadi.

O'zbek tili eng teran fikrlarni, ilmiy-siyosiy tushunchalarni, eng chuqur his-tuyg'ularni, xilma-xil ma'nolarni bekamu-ko'st ifodalash imkoniga ega bo'lgan tildir.

1989 yil 21-oktyabrda «Davlat tili to'g'risida»gi qonun qabul qilingach, (1995 yil 21-dekabr yangi tahrirdagi qonun) o'zbek tili millatning ona tilisi sifatida yana ham beqiyos kuch-qudrat va ahamiyatga ega bo'ldi. Zero, har bir o'zbek farzandining shuuriga ilk insoniy tuyg'ulardan tortib eng murakkab ilmiy tushunchalargacha barchasi, aynan ona tili orqali singdiriladi. Qolaversa ona tili dunyoni ko'rish, bilish, borliqni anglash, milliy ruh va milliy tafakkurni shakllantirish, millatning ma'naviy boyliklarini kelajak avlodlarga etkazish vositasi ham sanaladi. SHuning uchun ham Respublikamizning «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ona tili masalasiga katta e'tibor berilgan. SHunga ko'ra har qanday etuk kadrning o'z ona tilini yaxshi egallagan bo'lishi unga qo'yiluvchi asosiy talablardan biri hisoblanadi.

O'rta ta'lim dasturida «ona tili» fani sifatida o'qitiluvchi o'zbek tili filologiya fakultetlarida bir necha yo'nalishlarda davom ettiriladi. Ular orasida hozirgi o'zbek adabiy tili kursi markaziy o'rin egallaydi. Bu kursni o'rganish ob'ekti hozirgi o'zbek adabiy tili hamda uning o'zbek milliy tili tarkibidagi o'rni kabilardan iboratdir. Hozirgi o'zbek adabiy tilining maqsadi: talablarni shu tilning qurilishiga mansub hodisalar va qonun-qoidalar bilan ilmiy asosda tanishtirishdan iborat. Vazifalari esa:

a) sohaga oid adabiyotlar ustida ishlash, asosiy tushuncha va terminlar nazariy umumlashmalar bilan tanishish.

b) tilning fonetik, leksik, semantik va grammatik satxlariga mansub birliklarning adabiy til uchun me'yor bo'lgan va bo'lmagan belgi xususiyatlarini qiyosan o'rganish, tahlil qilish.

s) hozirgi adabiy tilning tarixiy ildizlari dialektal asoslari va til taraqqiyotini belgilovchi ichki hamda tashqi omillar haqida ma'lumot berishdan iborat.

Ushbu o'quv predmetida o'zbek tilining yaxlit holati (eski o'zbek tili nazarda tutilyapti) emas, balki sinxronik, yangi hozirgi kundagi holati bayon qilinadi. Lekin bunda tilning diaxronik, ya'ni tarixiy taraqqiyot sharoiti ham hisobga olinadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili eng dastlabki holat urug', qabila tili shaklidan hozirgi rivojlanish bosqichiga kutarilguncha, uzoq tarixiy davrni o'z boshidang kechirgan. O'zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi.

1. Qadimgi turkiy adabiy til:

a) eng qadimgi turkiy til (ilk til paydo bo'lgandan VII asrgacha bo'lgan davr. Avesto, Behistun yozuvlari bitilgan til).

v) qadimgi (o'rta turk tili) turkiy til (VIII-XI asrlar) O'rxun-Enasoy yodgorliklari yaratilgan til.

s) eski turkiy til (XI-XIII asrlar) «Qutadg'u bilig» – «Devoni lug'otit turk», «Hibatul haqoyiq», «Devoni lug'otit turk» kabi asarlar shu tilda yaratilgan.

2. Eski o'zbek adabiy til. Rabg'uziy, Xorazmiy, Atoi, Lutfiy, Sayfi Saroi, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Muqumiy, Zavqiy va boshqa ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

3. Yangi o'zbek adabiy tili (XIX asrning oxiri XX asr boshlari) o'zbek tili ana shu tarixiy ildizlardan o'sib chiqib, XX asrning 30-yillarida hozirgi o'zbek tili shakliga kirgan o'zbek tilining qadimiy turkiy tildan to hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan lisoniy taraqqiyotini kuzatish til davrlari orasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Ular quyidagi 2 omilga asoslanadi. 1) muayan tilning ichki

taraqqiyot qonuniyatlariga; 2) ikki yoki undan ortiq tillar o'rtasidagi kontaktga. O'zbek tilining rivojlanishida turkiy til bilan boshqa tillar ham katta rol o'ynagan. Bunda turkiy til asos (substrat) til vazifasini, arab, fors-tojik va rus tillari esa ustama (superstrat) til vazifasini o'tagan. Asos til bilan ustama til (lar) o'rtasida yuzaga kelgan aloqalar hamda ichki taraqqiyot qonuniyatlari qadimiy turkiy tildan to hozirgi o'zbek adabiy tiligacha bo'lgan davrda til strukturasi qator o'zgarishlarni olib kirgan. Masalan, qadimgi turkiy til vokalizmida 8 ta unli bo'lgan; eski o'zbek tilida esa 9 ta (a, ы, o, i, e, i, o, y, e), hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmida esa unlilar miqdori 6 taga (a, o, i, i, e, o') tushib qolgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotini belgilovchi omillar 2 xil:

1. Lisoniy omillar. Tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari asosida rivojlanib borishi lisoniy omillar hisoblanadi, lisoniy omillar uzoq vaqt davomida yuzaga keladi.

2. Nolisoniy omillarga tildan tashqarida mavjud bo'lgan omillar kiradi: ijtimoiy tuzum farmasiyalari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti shular jumlasidandir. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgach uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-tarifiy va ma'naviy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bularning barchasi o'zbek tili leksikasiga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Sobiq ittifoqdagi davlat tuzimga xos ayrim tushuncha nomlari (partkom, raykon, ministr, pioner, ...) iste'moldan chiqib, tarixiy qatlamga o'tib qoldi. Mustaqil O'zbekiston hayoti taqozo qilgan yangi so'z va atamalar (kollej, reyting, marketing, biznes, xakker, ...) paydo bo'ldi.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

1. Fonetika va fanologiya. Bu bo'limda nutq tovushlari va ularning xususiyati o'rganiladi.
2. Leksikologiya. Bu bo'limda tilning lug'at qoplamiga xos xususiyatlar, leksimalarning semantik tarkibi o'rganiladi.
3. Grafik va orfografiya. Bu bo'limlarda hozirgi o'zbek adabiy tilining yozuv tizimlari.
4. Orfoepiya. Bunda hozirgi o'zbek adabiy tilining to'g'ri talaffuz me'yorlari o'rganiladi.
5. Leksikografiya. Bunda lug'at va uning tiplari lug'at tuzish bilan bog'liq masalalar o'rganiladi.
6. Morfemika. Bu bo'limda so'zning ma'noli qismlari, ularning turlari, so'zning morfemik strukturasi bilan bog'liq masalalar o'rganiladi.
7. So'z yasalihi. Bunda so'z yasalihi strukturasi, so'z yasalihi usullari o'rganiladi.
8. Morfologiyada grammatik ma'no va grammatik shakllar, grammatik kategoriyalar, so'zlarni turkumlarga birlashtirish prinsiplari haqida fikr yuritiladi.
9. Punktualsiya. Bu bo'limda yozuv sistemasining uchinchi komponenti (1-grafika, 2-orfografika) – tinish belgilari haqida ma'lumot beriladi.
10. Stilistika. Bu bo'limda nutq uslublari o'rganiladi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. *Kursning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?*
2. *Tilning jamiyatda tutgan o'rnini nimalardan iborat?*
3. *O'zbek tilining davlat tili maqomi qanday xujjatlar bilan kafolatlanadi?*
4. *Hozirgi o'zbek adabiy tilining qanday tarixiy ildizlari bo'lgan?*
5. *Til taraqqiyotini belgilovchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni qanday tushunasiz?*
6. *«Hozirgi o'zbek tili» kursining qanday bo'limlari mavjud?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *SHoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980 y.*
2. *Tursunov U., Muxtorov J., SH.Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1992 y.*
3. *Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.*
4. *Baskakov N., Sodiqov A., Abduazizov S. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 1979 y.*
5. *Irisqulov A. Tilshunoslikka kirish. T., 1992 y.*
6. *Ne'matov H. Tarixiy fonetika. T., 1992 y.*
7. *Azizov O. Tilshunoslikka kirish. T., 1996 y.*
8. *Reshetov V., SHoabdurahmonov SH. O'zbek shevashunosligi. T., 1975 y.*

MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILINING DIALEKTAL ASOSLARI. DUNYO TILLARI.

R E J A:

1. *Milliy va adabiy til.*
2. *O'zbek tili ko'p shevali til.*
3. *Dialektlarning o'ziga xos xususiyatlari.*
4. *O'zbek adabiy tilining og'zaki va yozma shakllari.*
5. *Tillar tipologiyasi.*

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-------------------------|---------------------------|
| 1. Milliy til | 8. Qipchoq |
| 2. Adabiy til | 9. Ug'o'z |
| 3. Me'yor | 10. Integrasiya |
| 4. Adabiy til shartlari | 11. Talaffuz shakli |
| 5. Sheva | 12. YOzma shakl |
| 6. Laxja | 13. Lingvistik tipologiya |
| 7. Qarluq | 14. Tillar genetikasi |

O'zbek tili qadimiy va boy tillardan biridir, uning shakllanishi o'zbek millatining shakllanish jarayoni bilan bog'liq. Hozirgi adabiy tilimiz o'zbek xalqining milliy tili, davlat tili darajasiga etguncha uzoq va katta tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Dastlab og'zaki muloqotni ta'minlagan o'zbek tili keyinchalik yozma shaklda ham namoyon bo'ldi. YOzma nutq esa til hodisalaridan foydalanishning ma'lum me'yorlarini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirgan. Til hodisalaridan ma'lum me'yor asosida foydalanish esa o'zbek adabiy tilining shakllanishiga olib kelgan.

Qayerda yashashidan qat'iy nazar o'zbek millatiga mansub barcha kishilar tomonidan ishlatiladigan til o'zbek milliy tili yoki umumxalq tili deb yuritiladi. Milliy til o'z tarkibiga sheva, so'zlashuv nutqi, jargon, argo, vulgarizm va varvarizm kabi so'zlar guruhini qamrab oladi. SHunga ko'ra u adabiy tildan hajm va imkon jihatidan kengroq hisoblanadi.

Milliy tilning ma'lum qoida va me'yorlarga buysuntirilgan, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan oliy shakli adabiy til deyiladi. U tilning fonetik, leksik va grammatik qurilishida mavjud qonuniyatlarni ma'lum me'yorga solib turadi. Bu me'yor shu tilda so'zlovchi barcha kishilar uchun umumiy va zaruriy hisoblanadi. Me'yor adabiy til va adabiy nutqqa xos bo'lgan va ijtimoiy til amaliyotida tanlab olingan barqaror xususiyatlardir.

Adabiy tilning quyidagi 3 ta sharti mavjud:

1. Ma'lum qonun qoida va me'yorlarga bo'ysinishi kerak.
2. Adabiy til yozuv bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.
3. Adabiy til millatning barcha vakillari uchun umumiy bo'lishi kerak.

Aynan oxirgi xususiyatiga ko'ra, ya'ni millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo'lish zaruriyati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo'ldi. Milliy o'zbek tilida shevalarning ko'pligi o'zbek adabiy tiliga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tili muayyan qolipga solingan, o'zbek xalqining madaniy ehtiyoji va talablarini qondirishga xizmat qiladigan milliy adabiy tildir. Fan va texnika, matbuot va adabiyot, davlat va idoralar, ta'lim va televideniye adabiy til asosida ish olib boradi. Adabiy til doim o'zgarib va sayqallanib boradi. Adabiy til rivojlana borib, navbatdagi bosqichga davlat tili darajasiga ko'tarilishi mumkin. Bunda tilning vazifasi yanada kengayib, mavqei ortib boradi. Ba'zan jamiyatda davlat tili va adabiy til aynan bir tildan iborat bo'lmasligi ham mumkin. Bunday sharoitda tilning rivojlanishi sekinlashadi va u kundalik turmush tiliga aylanib qoladi. Sobiq ittifoq davrida o'zbek adabiy tili ham ana shunday holatni o'z boshidan kechirgan. Bu til siyosati masalasining noto'g'ri yuritish oqibatidir.

Jamiyatning iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishi, yagona adabiy til me'yorlariga amal qilish, radio va tele eshittirishlar adabiy til bilan shevalar orasidagi farqning kamayishi va nihoyat, yo'qolib ketishiga zamin hozirlaydi.

O'zbek milliy tili ko'p dealektli tillardan bo'lib, qator shevalarni o'z ichiga oladi, bu xol uning o'ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish sharoiti va o'zbek millatining o'tmishdagi xilma-xil etnik sostavi bilan izohlanadi. Ana shu davrda o'zbek xalqining muayyan sharoiti bilan bog'liq ravishda o'zbek tilining dealekt va shevalari o'zaro umumiylik kasb etib, yagona umumiy xalq tili bo'lib birika borgan va uning ajralmas qismiga hamda quyi formasiga aylanib qolgan, lekin ayrim lahja va

shevalar orasidagi farqlar hozirgacha saqlanib kelinmoqda. Masalan, qipchoq shevalarida singarmonizm xususiyatining to'liq saqlanib qolganligi, 9 ta unli fonemaning mavjudligi «F» tovushining deyarli qo'llanmasligi, checha (yanga), bo'la (xola), lochira ... kabi ko'plab o'ziga xos so'z va terminlarning saqlanib qolganligi yuqorida aytilgan fikrni tasdiqlaydi.

Ana shunday o'ziga xos tafovutlarga qaramay o'zbek tilining hamma dealekt va shevalari o'zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek tili shevalari 3 ta katta lahjaga qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalariga birlashtiriladi.

SHeva – bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Bir etnik guruhga mansub shevalarning o'zaro yaqin bo'lgan guruhlari esa – lahja deb ataladi. Dialekt so'zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi.

SHevashunos olimlar (V.V.Reshetov va SH.SHoabduraxmonovlar) lahjalarni quyidagicha tavsiflaydilar:

1. Qarluq lahjasi (Janubiy-SHarqiy guruh) bunga ko'pchilik shahar shevalari kiradi: Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan. Bu dialektning muhim morfologik va fonetik belgilari:

1) so'z oxirida «k» tovushi «y» tarzida aytiladi: kerak-keray, elak-elay.

2) «o» lashish yuz beradi: aka-oka, naxor-noxor.

3) «ning» qaratqich kelishigi o'rnida doim ni tushum kelishigi qo'llaniladi: ukamni (ng) kitobi.

2. Qipchoq lahjasi (SHimoliy-G'arbiy guruh) – bunga Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, SHimoliy Xorazm, Toshovuz (Turkmaniston) viloyati shevalari kiradi. Belgilari:

1) «y» o'rnida «j» ishlatiladi: yo'l-jo'l, yo'q-jo'q;

2) «g» o'rnida «v» ishlatiladi: tog'-tov, sog'-sov;

3) «k, q» tushumlari: quru(q), sovu(q);

4) eski o'zbek tilidagi singarmonizm qonuniyati saqlangan: olgan (adabiy tilda) – alg'on (qipchoq lahjasi shevalari) kelgan-kelgun, 9 ta unli fonemaning mavjudligi.

3. O'g'uz lahjasi (Janubiy-G'arbiy guruh) bunga Xorazm, O'rganch, Xiva, Xozarasp, Qo'shko'pir, shovot, Qozog'iston va Turkmanistonda yashovchi ba'zi o'zbek-o'g'uz shevalari kiradi. Belgilari:

1) unlilar qisqa va cho'ziq aytiladi: at (hayvon), aad (ism).

2) «t» tovushi «d», «k» esa «g» tarzida aytiladi: tog'-dog', keldi-galdi.

3) ning qo'shimchasi ing tarzida, ga esa a, na tarzida aytiladi: akamning-akaming, yoringa-yorima.

4) singarmonizm xodisasi saqlangan: uyimga (adabiy tilda), uyuma (o'g'uz lahjasida).

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg'ona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning (V.V.Reshetov, SH.Abduraxmonov) fikricha, Toshkent dialekti fonetik jihatdan, Farg'ona dialekti morfologik jihatdan adabiy tipga asos bo'lgan.

Lekin professor X.Doniyorov, B.To'ychiboev kabi olimlar fikricha qipchoq lahjasiga mansub shevalar ham adabiy tilning tarkib topishida faol qatnashgan. Chunki kelishiklarning adabiy tildagi kabi 6 talik tizimi qipchoq lahjasining «j» lovchi shevalarida saqlangan. Umuman olganda adabiy til barcha shevalarga tayanadi:

Shevalarning o'ziga xos xususiyatlari adabiy til ta'sirida asta sekin zaiflashadi va yo'qola boradi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining ikki xil og'zaki va yozma shakllari bor, shu ikki shakl vositasida u xalqqa xizmat qiladi.

1. Adabiy tilning og'zaki shakli to'g'ri talaffuz me'yorlariga, eshitish orqali idrok qilishga tayanadi. Bu shaklning tarixiy ildizlari xalq og'zaki ijodi namunalari: doston, qo'shiq, ertak, latifa, maqollar negizida rivojlanib, og'izdan-og'izga o'tib kelgan. Ana shu jarayonda uning hozirgi milliy adabiy tilga xos yagona talaffuz me'yorlari shakllangan.

2. Hozirgi o'zbek adabiy tilining yozma shakli, avvalo yozuv sistemasiga hamda shu sistema birliklarini ko'rish va o'qishga asoslanadi. Yozuv sistemi, ma'lumki, grafika, orfografiya va punktuasiya kabi komponentlardan tarkib topadi.

Adabiy tilning yozma formasi kishilar orasidagi bevosita aloqa vositasi bo'lmay, balki boshqa joyda va zamonda yashovchi kishilar bilan ham aloqa bog'lash vositasidir. Lekin ma'lum ma'noda yozma nutq imkoniyatlari og'zaki nutqqa nisbatan chegaralangan.

Hozirgi vaqtda er yuzi aholisi 3000 dan ortiq tilda gaplashadi. Bu tillarning rivojlanish darajasi va jamiyatda tutgan o'rni, ularda gaplashuvchilarning soni turlichadir. 100-200 kishidan tashkil topgan qabilaning tili ham, yuz millionli xalq gapiradigan til ham alohida til hisoblanadi.

Miqdor jihatdan ko'p bo'lishiga qaramay, tillar, o'zaro o'xshashlik xususiyatlariga ham ega. Bu esa tillarni turlarga ajratish bilan shug'ullanuvchi mustaqil soha lingvistik tipologiyaning shakllanishiga sabab bo'ldi. XIX asrdan boshlab ish yuritayotgan tipologiyada tillar asosan uch xil tasniflanadi: genetik tipologiya, morfologik tipologiya, struktural tipologiya.

Genetik tipologiya tillarni qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarga ajratib o'rganadi. Bir umumiy manbadan tarqalgan tillarni qarindosh tillar deb ataydi va ularni bir tillar oilasiga kiritadi.

Zamonaviy tilshunoslik ma'lumotlariga ko'ra hozirgi kunda 20 dan ortiq til oilalari mavjud. Bulardan eng kattasi Hind-Evropa tillari oilasidir. U o'z navbatida bir necha (ba'zi tasnifda 6 ta, ba'zisida 8 ta) guruhga bulinadi. Va har bir guruh o'zaro yaqin bo'lgan yana bir necha tilni birlashtiradi.

Oltoy tillar oilasiga kiruvchi turkiy tillar guruhi 24 ta tilni o'z ichiga oladi. Bu oilada 5 ta turkiy, mo'g'ul, manjur, yapon, koreys kabi til guruhlari mavjud.

Morfologik tipologiya tillarni qarindoshlik munosabatidan qat'iy nazar, grammatik tuzilishi asosida turlarga ajratadi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. *Nima uchun adabiy til milliy tilning oliy formasi sanaladi? Belgilari qaysilar?*
2. *Milliy tilning o'ziga xosligi nimaga asoslanadi?*
3. *Tilning rivojlanish bosqichlarini ayting.*
4. *Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari haqida gapiring.*
5. *Dialektlarning o'ziga xos jihatlari bilasizmi?*
6. *Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari qanday farqlanadi?*
7. *Tillar tipologiyasi deganda nimani tushunasiz?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *SHoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980 y.*
2. *Tursunov U., Muxtorov J., SH.Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1992 y.*
3. *Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.*
4. *Baskakov N., Sodiqov A., Abduazizov S. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 1979 y.*
5. *Irisqulov A. Tilshunoslikka kirish. T., 1992 y.*
6. *Ne'matov H. Tarixiy fonetika. T., 1992 y.*
7. *Azizov O. Tilshunoslikka kirish. T., 1996 y.*
8. *Reshetov V., SHoabdurahmonov SH. O'zbek shevashunosligi. T., 1975 y.*

MAVZU: FONETIKA. TOVUSH VA HARF. FONEMA VA UNING VARIANTLARI.

R E J A:

1. *Fonetikaning predmeti va vazifasi.*
2. *Fonetikaning bo'limlari.*
3. *Tovush nutqning – eng kichik birligi sifatida.*
4. *Fonema va fonologiya.*
5. *Fonema variantlari.*
6. *Tovush va harf.*

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-----------------------------|---|
| 1. <i>Fonetika.</i> | 7. <i>Ekspremental fonetika</i> |
| 2. <i>Fonetik birliklar</i> | 8. <i>Fizik-akustik aspekt</i> |
| 3. <i>Umumiy fonetika</i> | 9. <i>Anatomik fiziologik aspekt</i> |
| 4. <i>Xususiyy fonetika</i> | 10. <i>Perseptiv aspekt</i> |
| 5. <i>Tavsifiy fonetika</i> | 11. <i>Lingvistik-funksional aspekt</i> |
| 6. <i>Qiyosiy fonetika</i> | 12. <i>Fonema</i> |

13. *Fonologiya.*

14. *Fonema variantlari.*

15. *Fonemaning doimiy belgilari.*

16. *Tovush va harf.*

Fonetika – grekcha phone – tovush soʻzidan olingan boʻlib, tilshunoslikning alohida boʻlimi hisoblanadi va tilning tovush tomonini oʻrganadi.

Fonetika keng maʼnoda nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan nutq aʼzolarining tuzilishini, fonetik birliklarning oʻziga xos xususiyatlarini va tovush oʻzgarishi hodisalarini oʻrganadi. Fonetik birliklarga nutq tovushlari, boʻgʻin, fonetik soʻz, takt, fraza, oʻrgʻu, ohang kabilar kiradi. SHuni taʼkidlash lozimki, fonetika, tabiatdagi har qanday tovushlarni emas, balki inson nutq apparatida hosil boʻluvchi, ijtimoiy qiymatga ega boʻlgan nutq tovushlarini oʻrganadi. Tabiatdagi boshqa tovushlarni esa fizika fanining akustika boʻlimi tekshiradi.

Fonetikaning maqsadi fonetik birliklarning akustik, anatomik-fiziologik va funksional asoslarini oʻrganish va ularning til mexanizmidagi rolini aniqlashdan iborat.

Fonetika tovushlarning eshitilish tomonini oʻrganishda akustikaga, talaffuz qilinishi, aytilishi, hosil boʻlish tomonlarini oʻrganishda fiziologiyaga talqib ish koʻradi.

Fonetikaning boʻgʻin, oʻrgʻu bilan shugʻullanuvchi tarmoqlari badiiy adabiyot, sheʼriyat bilan aloqador.

Fonetikani oʻrganish orfografiya (toʻgʻri yozish), orfoepiya (toʻgʻri talaffuz qilish) meʼyorlarini yaxshi oʻzlashtirib olishga, adabiy talaffuz bilan shevalar oʻrtasidagi farqni aniqlashga, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutqini toʻgʻri shakllantirishga katta yordam beradi.

Hozirgi vaqtga kelib fonetika tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biri boʻlib, ikki mustaqil qism fonetika va fonologiyadan tarkib topgandir.

Fonetikada nutq tovushlari turli jihatdan oʻrganiladi. SHunga asosan uning quyidagi boʻlimlari mavjud:

1. Umumiy fonetika – fonetikaning barcha tillarga xos umumnazariy masalalari haqida maʼlumot beruvchi turi.

2. Xususiy fonetika – fonetikaning muayyan bir til tovushlarini, ularning turlari fizik-akustik va artikulyasion xususiyatlari xususida bahs yurituvchi turi. U quyidagi 2 qismdan iborat:

A) tavsifiy fonetika – muayyan tilning fonetik tizimini statik (oʻzgarmas) holatda (til taraqqiyotining oldingi bosqichida yuz bergan hodisalar bilan bogʻlamay) oʻrganadi.

B) tarixiy fonetika – biror tilning tovush tizimini diaxron planda va dinamik holatda (tilning tarixiy taraqqiyoti bilan bogʻlab) oʻrganadi va shu asosda tilning fonetik-fonologik tizimida yuz bergan tarixiy oʻzgarishlar aniqlanadi.

3. Qiyosiy fonetika – qardosh yoki noqardosh tillarning tovush tizimlarini qiyoslab oʻrganadi.

4. Eksperemental fonetika – nutq tovushlari, oʻrgʻu kabi birliklarning fizik-akustik va artikulyasion xususiyatlarini maxsus asboblarda vositasida oʻrganadigan fonetikadir.

Inson nutqi makon va zamonda ketma-ket paydo bo'ladigan kichik va katta birliklardan tashkil topadi. Tilda uch asosiy qatlam – fonetika, leksika, grammatika farqlanib, ular o'z oldiga qo'ygan vazifasiga ko'ra nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi. Nutqning eng kichik bo'linmas birligi tovush bo'lib, tildagi so'zlar, iboralar va umuman nutq tovushlar orqali shakllanadi. Nutq tovushlari nutqning bu birliklari uchun ifoda materiali bo'lib xizmat qiladi. Nutq tovushlarining quyidagi o'ziga xos uch jihati mavjud:

1. Ular nutq apparati vositasida hosil qilinadi.
2. Nutq tovushlari eshituv apparati yordamida eshitiladi.
3. Ular ijtimoiy qiymatga ega.

Demak, nutq tovushlarini talaffuz etmay, shuningdek, eshitmay turib tevarak olamdagi narsa-hodisalar haqida muayyan tushunchalarga ega bo'la olmaymiz. Zero, real predmetlar tovush yoki tovushlar shaklida ongimizda qayta gavdalanadi. Muhimi tovushlarning ketma-ketligi, o'ziga xos ma'no zanjiri vositasida bizga axborot etkaziladi. Insonlar nutq tovushlari yordamida fikr berib, fikr oladilar. Aynan mana shu xususiyatiga ko'ra nutq tovushlari tabiatdagi jonsiz jismlar va hayvonlarning tovushidan farq qiladi. Umuman, inson tili tovush tili bo'lib, ularning ishtirokisiz hech qanday nutq va muloqot amalga oshmaydi.

Tilning tovush tomoni murakkab hodisa bo'lib, uni (fonetik va fonologik) jihatdan quyidagi 4 aspektda o'rganiladi:

1. Fizik – akustik aspekt.
2. Anatomik – fiziologik aspekt.
3. Perseptiv (eshitib – xis etish) aspekt.
4. Lingvistik – funksional aspekt.

Fizik hodisa sifatida tovushning qanday akustik belgilari mavjud bo'lsa, nutq tovushlarining fizik-akustik xususiyatlari ham ana shulardan iborat. YA'ni nutq tovushlarining akustik xususiyatlari tovushning kuchi, balandligi, tembri, cho'ziq-qisqaligi bilan izohlanadi.

Nutq tovushlarini hosil qilishda qatnashuvchi odam a'zolari va ularning ishtiroki, harakat-holatini o'rganish anatomik-fiziologik aspektning tadqiqot doirasiga kiradi.

Fonetik birliklarning eshitish a'zolariga ta'sirini his etish orqali so'zning ma'nosini yoxud nutq va gap mazmunini idrok etish qonuniyatlarini perseptiv aspekt o'rganadi.

Lingvistik – funksional aspektda fonetik birliklarning ijtimoiy vazifa bajarishi ya'ni ma'no farqlash xususiyati e'tiborga olinadi. Tilshunoslikda bu aspekt fonologiya deb ataladi.

XIX asr oxirlariga kelib, nutq tovushlarini o'rganishda ularning 2 xil ko'rinishi – til tovushlari va nutq tovushlarini farqlay boshlandi. Til tovushlari haqidagi ilk g'oyalar rus va polyak tilshunosi I.A.Boduen de Kurtene tomonidan ilgari surildi. U (va shogirdi Krushevskiy) o'z tadqiqotlarida til tovushlarini ilk bor fonema deb nomladi. Fonema yoki til tovushlari mavhum – hodisa bo'lib, bevosita kuzatishda berilmaydi, faqat aql bilan idrok etiladi. Masalan, miyaning til xotirasi qismida o'zbek tilidagi har bir tovushning ramzi (belgisi) mavjuddir. Ana shu ramzda til tovushiga xos belgi – xususiyatlar haqidagi axborotlar mujassamlangan bo'ladi.

Miyadan biror tovushni aytish haqida «ko'rsatma» berilsa, nutq a'zolari shu tovushning ramzida mujassamlangan axborotga binoan harakatga kelib, (masalan, «u» tovush uning ramzida «ovozdan iborat», «og'iz bo'shlig'tor holatda, tovush hosil bo'lish oraliq'i tilning orqa qismida», lablar aktiv qatnashadi degan axborotlar bor) ma'lum holat egallaydi va o'pkadan zarb bilan chiqariladigan havo oqimi nutq tovushi sifatida namoyon bo'ladi. Nutq tovush moddiy hodisa bo'lib, uning akustik va fiziologik xususiyatlarini maxsus asboblarni yordamida tekshirish mumkin. Fonemaning kashf etilishi fonetikaning yanada ko'proq rivojlanishiga va uning keyingi bosqichi fanologiyani tarkib topishiga olib keldi. Fanologiyada tilning tovush tomoni funksional jihatdan o'rganiladi. Muayyan tilning fonemalar tizimini, bu tizimdagi fonemalarning fonologik belgilarini («ramzdagi axborotlar» majmui) shu tilning konkret talaffuz xususiyatlarini o'rganmay turib tadqiq etib bo'lmaydi. SHu ma'noda, fonologiya fonetika bilan uzviy bog'langan bo'lib uni fonetikaning yuqori bosqichi deyish mumkin. (Fonetika – nutqdagi, fonologiya «ongdagi» holatni o'rganadi). SHuning uchun, fonetika fonologiya bilan tilning material – ifoda rejasini o'rganish borasida umumiylik tashkil qiladi.

Fonema – tildagi ma'nodor birliklar bo'lmish so'z va morfemalarni tashkil etuvchi va ularni farqlash uchun xizmat qiluvchi, tilning eng kichik, o'zi mustaqil ma'noga ega bo'lmagan (bir planli) birligidir. Masalan, qol, qul, qo'l; tor, tog', tok, tol; boy, bor, bog' so'zlarida o, u, o', r, g', k, l; y, r, g' fonemalariga ko'ra ma'no farqlangan.

Fonemaning tovushga va tovushning fonemaga munosabati turlicha bo'ladi. Barcha fonemalar tovush hisoblanadi, ammo har bir nutq tovushini fonema deb bo'lmaydi. Jumladan, p va t undoshlari pol, tol so'zlarida alohida fonema sanaladi. SHu undoshlar kitob (kitob), ozot (ozod) so'zlarida talaffuz jihatidan alohida tovush bo'lsa ham, lekin fonema emas, ular jarangsiz tovush bilan yondosh holda yoki so'z oxirida jarangsizlashib, b, d fonemalarining varianti bo'lib kelgan. Jarangsizlashish nutq jarayonida yuz bergani uchun ham u tovushga (tovush o'zgarishi) tegishli holat hisoblanadi (fonemaga emas). Fonema varianti – fonema ottenkalari (L.V.SHcherba) deb ham yuritiladi. Fonema ottenkalari deganda til tovushlarining (fonemalarning) talaffuzdagi real ko'rinishi tushiniladi. Ular ikki xil bo'ladi: 1) kombinator ottenka – fonemaning so'z tarkibidagi boshqa tovushlar ta'sirida yuzaga kelgan ko'rinishi. Masalan, ketdi-ketti («t» ning ta'sirida «d» ham jarangsizlashdi). 2) pozitsion ottenka – fonemalarning so'zda tutgan o'rniga ko'ra moslashishi. Masalan, kitob-kitop («b» undoshi so'z oxirida kelgani uchun ham jarangsiz «p» variantini hosil qilyapti).

Har bir fonema o'zining turlicha o'rinda kelishi bilan bog'liq bo'lmagan doimiy belgilarga ega. Masalan, unli fonemalarning doimiy belgilariga tilning tik xarakatlashga ko'ra ko'tarilish darajasi hamda lablanganlik va lablanmaganlik kiradi. CHunki, «u» fonemasi har qanday holatda so'z boshida ham, so'z o'rtasida ham, so'z oxirida ham yuqori tor lablangan unli sifatida namoyon bo'ladi. Tilning gorizontall harakatiga ko'ra bo'linishi fonemaning qayerda va qanday tovushlar bilan yondosh kelishiga bog'langan, shuning uchun bu unli fonemaning doimiy belgisiga kirmaydi. Masalan, «u» fonemasi qul so'zida orqa qator, gul so'zida old qator unli tarzida talaffuz etiladi.

Undosh fonemalarning doimiy artikulyatsion belgilari deb ovoz va shovqinning ishtiroki, hosil bo'lish o'ri va usuli kabilar hisobga olinadi. SHuningdek, undosh tovushlar o'zbek tilida unlilardan avval kelganda aksariyat o'z artikulyatsiyalari bilan talaffuz qilinadi. Masalan, zamon, somon so'zlaridagi z, e, m undoshlari aniq talaffuz qilinyapti, noz, nos so'zlarida esa so'z oxirida kelganligi va ulardan keyin unli tovush bo'lmagani uchun aniq farqlanmaydi. Jarangli va jarangsizlik undosh fonemalarning o'zgaruvchan belgisi hisoblanadi. Jarangli undoshlar so'z oxirida va jarangsiz undosh yonida kelganda doim jarangsiz variant bilan aytiladi.

Nutq tovushlari va harfni farqlash kerak. Harf tovushning yozuvdagi shartli belgisi hisoblanadi. Nutq tovushlarini talaffuz qilamiz va eshitamiz harflarni ko'ramiz va yozamiz. Tovushlarning hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havoning og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrab yoki uchramasdan chiqishi muhim rol o'ynaydi. Harflar esa qo'l yoki turli texnik vositalar yordamida yoziladi. Harflar davriy ahamiyatga ega. Masalan, arab, lotin, kirill yozuvlarida «t» harfi har xil (T, ت) yoziladi, lekin t tovushi yagona artikulyasion bazaga ega.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. *Fonetikaning ob'ekti nimalardan iborat?*
2. *Fonetikaning maqsadi nima?*
3. *Fonetik birliklar qaysilar?*
4. *Fonetikaning qanday turlari bor?*
5. *Nutq tovushlarini o'rganish aspektlari qaysilar?*
6. *Nutq tovushlarining o'ziga xos jihatlari nima?*
7. *Til tovushi va nutq tovushining munosabatini tushuntiring.*
8. *Fonema nima?*
9. *Fonologiyaning paydo bo'lishi.*
10. *Fonemaning ijtimoiy vazifasini tushuntiring.*
11. *Fonema varianti nima?*
12. *Fonemaning doimiy belgisi nima?*
13. *Tovush va harfning farqni ayting.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *SHoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980 y.*
2. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992 y.*
3. *Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.*
4. *Irisqulov A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.*
5. *Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent, 1992 y.*
6. *Nurmanov A., Yo'ldoshev V. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Toshkent, 2001 y.*
7. *Azizov O. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1996 y.*
8. *Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent, 1990 y.*

MAVZU: NUTQ APPARATI. ARTIKULYASIYA. FONETIK AKUSTIKA.

R E J A:

1. *Nutq apparati va ularning tuzilishi.*
2. *Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi.*
3. *Artikulyatsiyaning tarkibi.*
4. *Nutq tovushlarining akustik xususiyatlari.*

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|---------------------------------|--------------------------------------|
| 1. <i>Nutq apparati.</i> | 11. <i>Rekursiya.</i> |
| 2. <i>Nafas apparati.</i> | 12. <i>Artikulyasiya o'rne.</i> |
| 3. <i>Bo'g'iz bo'shlig'i.</i> | 13. <i>Artikulyasiya usuli.</i> |
| 4. <i>Xalqum bo'shlig'i.</i> | 14. <i>Tovushning miqdori.</i> |
| 5. <i>Og'iz bo'shlig'i.</i> | 15. <i>Tovushning sifat belgisi.</i> |
| 6. <i>Burun bo'shlig'i.</i> | 16. <i>Tovush balandligi.</i> |
| 7. <i>Faol nutq a'zolari.</i> | 17. <i>Tovush kuchi.</i> |
| 8. <i>Nofaol nutq a'zolari.</i> | 18. <i>Tovush tembri.</i> |
| 9. <i>Ekskursiya.</i> | 19. <i>Tovush cho'ziqligi</i> |
| 10. <i>Ish holati.</i> | |

Ma'lumki, barcha tirik organizmlar tovush chiqarish qobiliyatiga ega. Buning sababi ularda tovush chiqarish apparati va eshitish organi mavjud. Lekin insonga xos bo'lgan nutq tovushlari bu ikki jihatdan tashqari, uchinchi ijtimoiy qiymat belgisiga ham ega. SHuning uchun ham nutq tovushlarining hosil bo'lishi murakkab jarayon hisoblanadi. Insondagi nutq tovushlarining hosil bo'lishi uning nafas olish va chiqarish faoliyatiga borib taqaladi.

Bunda dastlab o'pkadan chiqayotgan havo bo'g'iz bo'shlig'idagi un paychalariga tegib uni tebratadi va natijada shu erda un (ovoz) hosil bo'ladi. Bo'g'iz yoki og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrash-uchramasligi, tilning hamda lablarning turli pozitsiyalarda turishi natijasida tovushlar har xil sifat va miqdor belgilariga ega bo'ladi.

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan a'zolar nutq a'zolari yoki nutq apparatini tashkil etadi. U quyidagilardan tarkib topgan.

1. Nafas apparati – o'pka, bronxlar, traxeya, ko'krak qafasi kabilardan iborat. Bu apparat a'zolari tovush hosil qilish uchun zarur bo'lgan havo oqimini boshqa a'zolarga etkazib beradi va havo manbai hisoblanadi.

2. Bo'g'iz bo'shlig'i – traxeyaning yuqori (kengaygan) qismi. Unda un paychalari, uzuksimon, qalqonsimon, cho'michsimon, ponasimon, shoxsimon tog'aylar mavjud. Bu apparatlardagi eng faol a'zolar un (ovoz) paychalaridir. Ularda 3 xil holat kuzatiladi: a) un paychalari tinch holatda to'rganda ularning oralig'i ochiq bo'ladi va ovoz hosil bo'lmaydi; b) ovoz paychalari tortilganda (taranglashganda) ular orasidagi ochiq bo'shliq yumiqlik holatga keladi, natijada havo oqimining yo'li to'siladi (fokus hosil bo'ladi) va havo oqimi taranglashgan ovoz paychalariga urilib

davriy tebranishni yuzaga keltiradi. Bunday tebranish ovozni hosil qiladi. SHuning uchun bo'g'iz bo'shlig'i ovoz manbai hisoblanadi; v) ovoz paychalari bo'shroq tortilgan holatda shu paychalar orasida torroq bo'shliq yuzaga (yumuq fokus deyiladi) keladi. Havo oqimi shu bo'shliqdan sirg'alib, ishqalanib o'tadi, ammo un paychalarini tebranmaydi, natijada shovqin hosil bo'ladi. bu tovush pichirlab yoki shivirlab gapirganda qo'llaniladi.

3. Xalqum – bo'g'izdan yuqoriroqda joylashgan bo'shliq. U 3 qismdan iborat pastki qism – xiqqildoq o'rta qism – xalqumning og'zi (bu qism og'iz bo'shlig'ini tomonga ochilgan bo'ladi) yuqori qism – burun bo'shlig'i va eshituv paylariga birikkan bo'ladi.

4. Og'iz bo'shlig'i – til, kichik til, tishlar, lablar, lunjlar, qattiq va yumshoq tanglay til osti muskullaridan iborat apparat.

5. Burun bo'shlig'i – qo'shimcha ton manbai. U yumaloq tanglay oxiridagi kichik tishning quyi tomon harakat qilishi natijasida rezonatorga aylanadi: havo oqimning bir qismi burun bo'shlig'idan o'tib qo'shimcha tonlarni yuzaga keltiradi. Nutq tovushlari m, n, ng shu apparat ishtirokida yuzaga keladi.

Nutq a'zolari tovush hosil qilishdagi ishtirokiga ko'ra faol va nafaol a'zolarga bo'linadi. 1. Faol a'zolarga ovoz paychalari, til, yumshoq tanglay lablar va pastki jag'lar kiradi. 2. Nafaol a'zolarga – tish, qattiq tanglay yuqori jag' va burun bo'shlig'i kiradi.

Nafas apparati tovush hosil qilish uchun kerak bo'lgan havo oqimini etkazib beradi, bo'g'iz – ovoz hosil qiladi, xalqum, og'iz bo'shlig'i tovushni shakllantiradi, burun bo'shlig'i qo'shimcha ton beradi.

Nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi harakat va holat jarayoni artikulyasiya deyiladi. «Artikulyasiya» lotincha – so'zdan olingan bo'lib, «aniq talaffuz qilish» degan ma'noni anglatadi. Ma'lum bir tilga xos bo'lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiklashgan nutq apparati (harakatlar majmuyi) artikulyasion baza deyiladi. Artikulyasiya bazasi har bir millat vakillaridagi psixologik va fiziologik ko'nikmalarga tayanadi. Tillar bir-biridan artikulyasiya bazalaridagi ba'zi farqlar bilan o'zaro farq qiladi. Masalan, o'zbek tili artikulyasiya bazasida rus tiliga xos s tovushining artikulyasiyasi mavjud emas.

Har qanday nutq tovushlarining artikulyasiyasi 3 bosqichdan tarkib topadi. a) birinchi bosqich – ekskursiya (hozirlanish); b) ikkinchi bosqich – o'rta holat, ish holati; v) uchinchi bosqich – rekursiya talaffuzning qaytishi. Masalan, «b» tovushini hosil qilish uchun shu tovushni hosil qilishda ishtirok etuvchi nutq organlari talaffuzga tayyorlanadi. Bunda ustki lab bilan pastki lab jipslashib o'pkadan kelayotgan havoni to'sadi, bir zum tuxtalishdan so'ng nutq organlari asl holiga qaytadi.

Artikulyasiyada 2 hodisa – artikulyasiya o'rni va usuli muhim rol o'ynaydi. Artikulyasiya o'rni deganda – tovush hosil qilishda ishtirok etuvchi nutq a'zosi yoki shu a'zoning faol ishtirok etayotgan qismi tushuniladi. Masalan, m, n, d, t, z, s tovushlari til oldi qismining tish yoki milkka tegishi va yaqinlashuvidan hosil bo'ladi va til oldi undoshlari deb yuritiladi.

Nutq a'zolari hosil qilgan to'siqdan havo oqimining portlab yoki sirg'alib titrab o'tishi – artikulyatsiya usulini ifodalaydi. Nutq a'zolarining tuzilishi va nutq tovushlarining artikulyatsiyasi anatomik-fiziologik aspektida o'rganiladi.

Fonetik birliklarning fizik tabiatiga tovushning balandligi kuchi, tembri, cho'ziqligi kiradi va ular fonetikaning fizik-akustik aspektida o'rganiladi.

Tovushning balandligi vaqt birligi ichidagi (masalan, 1 sekundda) tebranish miqdoriga bog'liq bo'ladi. Tebranish qancha ko'p bo'lsa tovush shuncha baland, kam bo'lsa past chiqadi. Tebranayotgan jismning, masalan – un paychalarining tinch holatdagi nuqtadan ikki qarama-qarshi tomonga bir marta borib kelishi bitta to'la tebranish hisoblanadi va bu bir gers deyiladi. Insonning eshitish qobiliyati 16 gersdan (infratovush) 2000 gersga (ultratovush). Insonning eng past tovushi bas (40 gers), eng baland tovushi esa soprano (170 gers) deyiladi. Tovushning baland-pastligi melodikani, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emosionallikka ko'ra turlarini yuzaga keltiradi.

Nutq tovushlarining kuchi o'pkadan chiqayotgan havo oqimining qarshilik ko'rsatayotgan nutq organlariga kuch bilan urilishiga bog'liq. Bu kuchlanish qanchalik shiddatli bo'lsa tebranish darajasi shunchalik keng, tovush ham shuncha kuchli bo'ladi. tebranish kengligi (amplituda) qancha qisqa bo'lsa, tebranish ko'p va tez (ovoz ingichka va baland) amplituda uzun bo'lsa, tebranish kam va sekin (tovush yug'on va past) bo'ladi. tovush kuchi detsibal bilan o'lchanadi. Odam uchun 130 detsibaldan ortiq kuchdagi tovush quloqqa og'riq beradi. Tovush kuchining nutqdagi ahamiyati zarb o'rg'usini ifodalashda namoyon bo'ladi.

Nutq tovushlarining tembri tovushlarning asosiy ton va yordamchi tonlardan tarkib topishidir. Tovush tembri (buyoqdorligi)ning turli xil bo'yoqlarga (formantlarga) ega bo'lishida bo'g'iz xalqum, og'iz va burun bo'shliqlari va ularning turli shakllarga kirishi rezonatorlik vazifasini bajaradi. Tovush tembri unli tovushlar uchun muhim, chunki hamma unli fonemalar ovozdan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan tovush tembri orqali farqlanadi.

Tovush cho'ziqligi – tebranishning oz yoki ko'p vaqt davom etishiga bog'liq bo'ladi. tovush cho'ziqligi 2 xil bo'ladi: 1) fonologik cho'ziqlik – ma'no farqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, turkman tilida yilqi va ism-ma'nosida ot so'zlari o unlisining cho'ziqlik darajasi bilan ajratiladi. Ot (ad - yilqi) o : t (o : d - ism).

2) sof fizik-akustik cho'ziqlik. Bunda o'rg'uli bo'g'indagi unli biroz cho'ziladi, ammo ma'no farqlanmaydi (atlas – atlas – kabilan bundan mustasno). Masalan, shahar so'zida «h» ning tushib qolishi natijasida ikki «a» yonma-yon kelib bir cho'ziq «a» tarzida talaffuz qilinadi: sha : ar, ammo bu holat ma'noni o'zgartirmaydi.

Nutq tovushlarining balandligi, kuchi (intensivligi) va tembri ularning sifat belgilari, cho'ziqligi esa miqdor belgisi sanaladi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. *Nutq tovushlarining biologik asosini nima tashkil etadi?*
2. *Nutq apparatini qanday a'zolar tashkil etadi?*
3. *Nutq a'zolari nechaga bo'linadi?*
4. *Nutq apparatini o'rganishning ahamiyati nimada?*

5. *Havo manbai, ovozni shakllantiruvchi qo'shimcha ton manbai kabi vazifa bajaruvchi a'zolar qaysilar?*
6. *Artikulyasiya nima?*
7. *O'zbek tilining artikulyasiya bazasi deganda nimani tushunasiz?*
8. *Artikulyasiya necha bosqichdan iborat.*
9. *Tovushning fizik akustik belgilari nimalar?*
10. *Tovushning balandligi nima?*
11. *Tovush kuchi nimaga bog'liq?*
12. *Tovush kuchi tovush va nutqning qaysi jihatlarini belgilaydi?*
13. *Tovush tembri nima?*
14. *Tovush tembri vositasida nimalar farqlanadi? (odamlarning ovozi)*
15. *Tovushning sifat va miqdor belgilariga nimalar kiradi?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *SHoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980 y.*
2. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992 y.*
3. *Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.*
4. *Irisqulov A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.*
5. *Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent, 1992 y.*
6. *Nurmanov A., Yo'ldoshev V. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Toshkent, 2001 y.*
7. *Azizov O. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1996 y.*
8. *Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent, 1990 y.*

MAVZU: UNLI TOVUSHLAR TASNIFI VA TAVSIFI.

R E J A:

1. *Unli va undosh tovushlarning o'zaro munosabati.*
2. *Unli tovushlar tasnifi:*
 - a) *tilning tik (vertikal) harakatiga ko'ra;*
 - b) *tilning yopiq (gorizontal) harakatiga ko'ra;*
 - v) *lablarning ishtirokiga ko'ra.*
3. *Unli tovushlar tavsifi.*

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|--|-------------------------------|
| 1. <i>Vokalizm.</i> | 5. <i>Til oldi unlilar.</i> |
| 2. <i>Tilning vertikal harakati.</i> | 6. <i>Til orqa unlilar.</i> |
| 3. <i>Tilning gorizontal harakati.</i> | 7. <i>YUqori tor unlilar.</i> |
| 4. <i>Lablarning ishtiroki.</i> | 8. <i>O'rta keng unlilar.</i> |

9. Quyi keng unlilar.
10. Lablangan unlilar.
11. Lablanmagan unlilar.

12. Yo'g'on (orqa qator) ottenka.
13. Ingichka (old qator) ottenka

Vokalizm – o'zbek adabiy tilining unlilari tizimidir. U 6 ta fonemani - i, e, a, u, o', o o'z ichiga oladi va faqat ovozdan hosil bo'ladi.

Unli fonemalar undoshlardan quyidagi belgilariga ko'ra farqlanadi.

1) unlilar bo'g'izda (tovush paychalarining tebranishidagina) paydo bo'ladi; undoshlar esa og'iz bo'shlig'ida paydo bo'ladi.

2) unlilar sof ovozdan iborat bo'ladi, undoshlar og'iz bo'shlig'ida ovoz va shovqinning qo'shiluvidan hosil bo'ladi.

3) unlilar artikulyasiya jarayonida hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladi, undoshlar og'iz bo'shlig'ida tusiqqa uchraydi.

4) unlilar chuziqlik va musiqiylik xususiyatiga ega.

5) unlilar yakka holda bo'g'in hosil qila oladi, undoshlar bunday xususiyatga ega emas.

6) unlilar o'rg'u qabul qiladi, undoshlar esa o'rg'u olmaydi.

7) Unlilar uch tomondan tasnif qilinadi, undoshlar esa besh tomondan.

O'zbek tili unli fonemalari quyidagi uch belgiga ko'ra tasniflanadi:

I. Tilning vertikal harakatiga ko'ra:

a) yuqori tor unlilar: i, u ularni talaffuz qilganda og'iz tor ochiladi va til bilan qattiq tanglay orasi ham tor bo'ladi;

b) o'rta keng unlilar – e, o', bunda til bilan qattiq tanglay orasi o'rta kenglikda ochiladi;

v) quyi keng unlilar – a, o, ularning talaffuzida og'iz keng ochiladi.

II. Tilning gorizontal harakatiga ko'ra:

a) old qator unlilar – i, e, a. Ularning talaffuzida tilning uchki qismi pastki tishlarga tiraladi.

b) orqa qator unlilar – u, o', o. Bunda tilning uch qismi tishlarga tiralmaydi, biroz orqaga tortiladi.

III. Lablarning ishtirokiga ko'ra:

a) lablangan unlilar – u, o', o. Ularni talaffuzida lablar doira shaklida biroz cho'ziladi.

b) lablanmagan unlilar – i, e, a. Bunda lablar doira shakliga kirmaydi va cho'zilmaydi.

O'zbek tilshunosligida unli fonemalarning boshqacharoq tasniflari ham uchraydi. B.To'ychiboev, O.Azizov, M.Mirtojiyevlar tasnifi bunga misol bo'ladi. Bu tasniflardagi farqliliklar unli fonemalar miqdorini eski o'zbek tilidagi kabi 9 ta deb belgilash, yoki tasnifda 6 ta asosiy tovushdan tashqari ularning ottenkalarini ham kiritish natijasida yuzaga kelgan.

«i» fonemasi – yuqori tor, old qator, lablanmagan unli. Bu fonema so'zning barcha bo'g'inlarida uchraydi: ichki, tinchlik, tirikchilik (birinchi, ikkinchi va oxirgi bo'g'inlarda). U chuqur til orqa q, g', x undoshlari bilan yonma-yon kelganda orqa qator unli tarzida, boshqa barcha o'rinlarda old qator unli tarzida aytiladi: kir va qir, til va qiz. O'rg'usiz bo'g'inda kuchsiz va qisqa aytiladi. Biroq – qalin, bilan – bilim (qiyoslang).

«e» fonemasi – o'rta keng, old qator, lablanmagan unli. Bu unli bir bo'g'inli so'zlarda (men, sen, kel), ko'p bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'inida (beshik, telpak) ko'proq qo'llanadi. Tobe, tole, telefon kabi o'zlashmalarda qo'llangan «e» unlisi etimologik jihatdan sof turkiy so'zlardagi «ə» ning o'zi emas.

«a» fonemasi – quyi keng, old qator, lablanmagan unli. So'zning barcha bo'g'inlarida keladi: anor, kamalak, bola. Bu fonema q, g', x undoshlari bilan kelganda orqa qator unli tarzida, k, g, ng, y, h undoshlari bilan kelganda old qator ottenka bilan aytiladi: dangal va dag'al, kasal-qasam, nasihat-tilxat.

«u» fonemasi – yuqori tor, orqa qator, lablangan unli. So'zning barcha bo'g'inlarida keladi: uka, uzum, ko'zgu.

Urg'uli bo'g'inlarda kuchli, biroz cho'ziq, o'rg'usiz bo'g'inda kuchsiz, qisqa talaffuz etiladi: butun, uchun, uzuk. Bu unli ham q, g', x bilan yondosh kelsa orqa qator ottenkada, k, g, nd, y, h bilan kelsa old qator ottenka tarzida aytiladi.

«o'» fonemasi – o'rta keng, orqa qator, lablangan unli. Sodda so'zning birinchi bo'g'inida qo'llanadi. O'n, o't birinchi bo'g'indan keyin kelishi qo'shma so'z va tojikcha o'zlashmalarda uchraydi: gultojixo'roz, obro'.

«o» fonemasi – quyi keng, orqa qator, kuchsiz lablangan unli. So'zning barcha bo'g'inlarda uchraydi: ota, baho, bobojon. Bu unli k, ch, nd, y, h undoshlari yonida old qator, q, e, h undoshlari yonida orqa qator unli tarzida aytiladi.

Unlilar tasnifidagi lablarning ishtiroki va tilning vertikal harakatiga ko'ra kabi belgilar fonemalarning fonologik xususiyatlari hisoblanadi. Uchinchi moddada old qator va orqa qatorlik belgisi esa o'zicha fonologik rol o'ynamaydi, chunki tovushlarning bu jihati lablarning ishtirokiga va turli kombinator omillar ta'siriga bog'liq. Demak, old qator va orqa qator unlilarining fonologik xususiyati lablar ishtirokisiz namoyon bo'lmaydi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. *Vokalizm nima?*
2. *O'zbek adabiy tili vokalizmi qanday fonemalarni o'z ichiga oladi?*
3. *Unli fonemalar undoshlardan qanday farqlanadi?*
4. *Unli fonemalar tasnifi nimalarga asoslanadi?*
5. *Lablarning ishtirokiga ko'ra unlilarning turlari?*
6. *Tilning vertikal harakatiga ko'ra unlilarning turlari?*
7. *Tilning gorizontal harakatiga ko'ra unlilar qanday tasniflanadi?*
8. *Unlilardagi qaysi belgilar fonologik xarakterda?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *SHoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980 y.*
2. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992 y.*
3. *Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.*
4. *Irisqulov A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.*

5. Abduazizov A. *O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi*. Toshkent, 1992 y.
6. Nurmanov A., Yo'ldoshev V. *Tilshunoslik va tabiiy fanlar*. Toshkent, 2001 y.
7. Azizov O. *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent, 1996 y.
8. Nurmonov A. *O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi*. Toshkent, 1990 y.

MAVZU: O'ZBEK TILINING UNDOSHLAR TIZIMI.

R E J A:

1. Konsonantizm.
2. Undoshlar tasnifi:
 - a) hosil bo'lish o'rniga ko'ra;
 - b) hosil bo'lish usuliga ko'ra;
 - v) un paychalari ishtirokiga ko'ra;
 - g) ovozning ishtirok etish darajasiga ko'ra.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|---------------------------|--------------------------------|
| 1. Konsonantizm. | 6. Til o'rta undoshlari. |
| 2. Fokus. | 7. Sayoz til orqa undoshlari. |
| 3. Labial undoshlar. | 8. CHuqur til orqa undoshlari. |
| 4. Til – tish undoshlari. | 9. Bo'g'iz undoshlari. |
| 5. Til oldi undoshlari. | 10. Burun (nazal) tovushlar |

Konsonantizm(s) hozirgi o'zbek adabiy tilining undosh fonemalar tizimidir. Bu tizim 24-fonemani o'z ichiga oladi: b, v, g, d, j, dj, z, y, k, l, m, n, pd, r, r, p, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h. Biroq manbalarda o'zbek adabiy tili undoshlari miqdoriga oid boshqa fikrlar ham mavjud: 22 ta (S.Otamirzayeva, E.D.Polivonov), 23 ta (A.K.Borovkov, L.I.Kissin), 25 ta (N.Kononov, V.V.Reshetov, A.Abduazizov).

Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili undosh fonemalari miqdori masalasida tilshunoslikda tugal fikr yo'q.

Undosh tovushning shakllanishida albatta shovqin qatnashadi, u nutq apparatidagi aktiv va passiv a'zolarining tegishi yoki juda yaqinlashuvi natijasida hosil bo'lgan to'siqdan havo oqimining portlab yoki sirg'alib o'tishidan paydo bo'ladi. Bunday to'siq fonologiyada fokus deyiladi.

Undoshlar tasnifida hosil bo'lish o'rni (artikulyasiya o'rni) birinchi tasnif belgisi hisoblanadi.

I. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra. Bunda nutq apparatining qaysi a'zosi faol ishtirok etayotganligi va nutq apparatining qayerida to'siq hosil qilinishi nazarda tutiladi. Bu jihatdan tovushlar labial, til va bo'g'iz undoshlariga bo'linadi.

1) Labial undoshlar – ikki lab orasida yoki pastki lab orasida yuqori tishlar bilan hosil qilinadigan tovushlar. Ular ikki to'rga bo'linadi. a) lab-lab undoshlar – p, b, m, lab tish undoshlar – v, f.

Izoh: lab-lab «v» undoshi ov, suv, qovun kabi turkiy so'zlarda ishlatiladi. Bu tovush turkiy til taraqqiyoti davomida lab-tish «v» dan o'sib chiqqanligi lab-tish «v»ning b, g', g undoshlarida sodir bo'lgan o'zgarish asosida shakllanganligi haqida ma'lumotlar bor. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi arabcha va ruscha o'zlashmalarda (vatan, vaqt, vagon) qo'llanuvchi lab-tish «v» yuqoridagi turkiycha «v» ning o'zi emas. Ular etimologik jihatdan farqlanadi. Demak, hozirgi o'zbek adabiy tilida ikki xil «v», sof turkiy so'zlarda lab-lab «v», arabcha va ruscha o'zlashmalarda lab-tish «v» qo'llaniladi.

2) Til undoshlarini – tilning faol ishtirokida hosil bo'ladi. ular fokus tilning qayerida hosil bo'lishiga ko'ra quyidagicha turlarga bo'linadi:

a) til oldi undoshlari – t, d, s, z, l, n, sh, j, ch, dj, r;

b) til o'rta undoshi – y. Bu undosh talaffuzida tilning o'rta qismi qattiq tanglay tomon ko'tariladi;

v) sayoz til orqa undoshlari – k, g, ng. Bu undoshlar talaffuzida tilning orqa qismi yumshoq tanglayga tegib to'siq hosil qiladi;

g) chuqur til orqa undoshlari – q, g', x. Bunda tilning eng orqa qismi kichik tilga tegib tusiq hosil qiladi.

3) Bo'g'iz undoshi – h. Bunda havo oqimi bo'g'iz va xalqumdan ishqalanib o'tadi.

II. Artikulyatsiya usuliga ko'ra. Bunda o'pkadan kelayotgan havo oqimining to'siqdan qay tarzda o'tishi nazarda tutiladi. Bunga ko'ra ular quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Portlovchilar. Bu undoshlarning talaffuzida nutq apparatidagi ikki a'zo bir-biriga tegib havo yo'lini to'sadi, natijada portlash yuz beradi. Ularga b, g, d, k, p, t, q fonemalari kiradi.

2. Qorishiq portlovchilar (affikatalar) ch, j, (dj). Bu undoshlar talaffuzida bitta fokusning o'zida 2 xil holat ham portlash, ham sirg'alish bilan tugaydi.

3. Sirg'aluvchilar – v, j, z, y, l, s, f, x, sh, h, m, n, ng, g'.

4. Titroq tovush – r. Bu undosh talaffuzida tilning uchi qattiq tanglayning old qismi tomon ko'tariladi va havo zarbiy bilan titrash hosil bo'ladi.

III. Un paychalari ishtirokiga ko'ra.

1. Jarangsiz undoshlar – k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, h (10 ta). Ularning talaffuzida havo oqimi bo'g'izdagi un paychalari orasidan tusiqqa uchramay o'tadi va ular tebranmaydi tovush xalqumda yoki og'iz bo'shlig'idagi to'siqda yuzaga kelgan shovqindan tarkib topadi.

2. Jarangli undoshlar – b, v, g, d, j, j (dj), z, r, l, m, n, nd, r, g' (14 ta). Ularning artikulyatsiyasida o'pkadan kelayotgan havo oqimi un paychalariga urilib, uni tebratadi va ovoz yuzaga keladi. Bu ovoz o'z navbatida og'iz bo'shlig'idagi to'siqda paydo bo'lgan shovqinga qo'shilib, tovushning jaranglashuviga sabab bo'ladi.

IV. Ovozning ishtirok etish darajasiga ko'ra. Bu belgiga ko'ra undoshlar sonor (lotincha sonaris - ovoz) lar va shovqinlilarga bo'linadi. sonorlarda ovoz shovqinga nisbatan ustun bo'ladi. Ularga m, n, ng, l, r, undosh tovushlari kiradi. Sonorlar rezonator vazifasini bajaruvchi top manbaiga ko'ra 2 ga: m, n, ng – burun sonantlari, l, r – og'iz sonorlariga bo'linadi.

Sonorlar xususida gapirganda, ularning bo'g'in hosil qilish yoki qilmasligi bilan bog'liq bahsli masalaga to'xtash zarur. Bu tovushlar artikulyatsiyasida tovush paychalari ishtirok etadi, ovoz shovqindan ustun bo'ladi va za-yl (za-y:l), sha-kl (sha-kil), ha-jm (ha-jim) kabi so'zlarda bo'g'in ham hosil qiladi. Lekin buni ayrim olimlar etirof etsada, yu ayrim olimlar inkor etadi. SHuningdek, sonorlarning miqdori masalasida ham tugal fikrlar yo'q. Keyingi tilga oid tadqiqotlarda y undoshi sonor deb berilmoqda. Tilshunoslar S.Otamirzayeva va A.Abduazizov ishlarida «v» undoshi ham sonorlar qatoriga kiritilgan.

Qolgan 19 ta undosh shovqinlilar hisoblanadi. shovqinlilarda ovoz shovqinga nisbatan kam bo'ladi yoki mutlaqo qatnaymaydi. Masalan, b, g', d, j, j (dj), z – undoshlarida ovoz kam shovqin ko'p bo'lsa, k, p, s, t, f, x, g', sh, q, h undoshlarida ovoz yo'q. Ular faqat shovqin hisobiga yuzaga keladi.

Undoshlar tasnifi ham turli adabiyotlarda har xil beriladi. Bu o'rinda soddaroq va ommaviyroq tasnif asosida ish yuritildi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. *Konsonantizm nima?*
2. *Hozirgi o'zbek adabiy tilida undoshlar miqdori nechta? Miqdordagi xilma-xillik sababi?*
3. *Tovush fokusi nima va uning ahamiyati qanday?*
4. *Undosh fonemalar qaysi belgilariga ko'ra tasnif qilinadi?*
5. *Artikulyasiya o'rniga ko'ra undoshlar tasnifi?*
6. *Artikulyasiya usuliga ko'ra undoshlar tasnifi?*
7. *Un paychalari ishtirokiga ko'ra qanday tasniflanadi?*
8. *Ovoz va shovqin munosabatiga ko'ra undoshlar tasnifi?*
9. *O'zbek tili konsonantizmidagi munozarali masalalar?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *SHoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980 y.*
2. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992 y.*
3. *Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.*
4. *Irisqulov A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.*
5. *Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent, 1992 y.*
6. *Nurmanov A., Yo'ldoshev V. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Toshkent, 2001 y.*
7. *Azizov O. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1996 y.*
8. *Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent, 1990 y.*

MAVZU: NUTQNING FONETIK BO'LINISHI. BO'G'IN VA O'RG'U

R E J A:

1. *Nutqning fonetik bo'linishi.*
2. *Bo'g'in va uning turlari.*
3. *Bo'g'inning ahamiyati.*
4. *O'rg'u va uning turlari.*
5. *O'rg'u olmaydigan qo'shimchalar.*

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-----------------------------------|---|
| 1. <i>Tovush.</i> | 9. <i>O'rg'u.</i> |
| 2. <i>Bo'g'in.</i> | 10. <i>So'z o'rg'usi.</i> |
| 3. <i>Takt.</i> | 11. <i>Gap o'rg'usi.</i> |
| 4. <i>Fraza.</i> | 12. <i>Dinamik o'rg'u.</i> |
| 5. <i>Segmentasiya birliklar.</i> | 13. <i>Bog'liq o'rg'u.</i> |
| 6. <i>Bo'g'in tiplari.</i> | 14. <i>Erkin o'rg'u.</i> |
| 7. <i>Ochiq bo'g'in.</i> | 15. <i>O'rg'u olmaydigan qo'shimchalar.</i> |
| 8. <i>YOpiq bo'g'in.</i> | |

Nutq ketma-ket kelgan tovushlarning yig'indisi yoki zanjirsimon ulanishidan iborat bo'lib, ma'lum fonetik birliklardan tashkil topadi. bu fonetik bo'linish hisoblanadi va tilshunoslikda segmentasiya (lotincha segment - bo'lak) deb ham yuritiladi. Har bir bo'lak segment hisoblanadi. fonetik birliklar dastlab ikki guruhga segment va supersegment birliklarga bo'linadi.

Segment birliklar – so'z yoki morfema tarkibida gorizontaal chiziq bo'ylab birin-ketin keladigan birliklardir. Ularga nutq tovushi, bo'g'in, fonetik so'z, takt va fraza kiradi.

Supersegment birliklar – o'rg'u, ohang, melodika, pauza kabi ustama hodisalar bo'lib, ular so'zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit holda aloqador bo'ladi va ular bilan birga qo'llanuvchi ustama hodisalar hisoblanadi.

Nutqning boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan eng kichik birligiga tovush deyiladi. Tovushlardan bo'g'in tashkil topadi.

Bir havo zarb bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar yig'indisi bo'g'in deyiladi. Ular so'zni hosil qiladi. Nutq tovushlarining muayyan ketma-ketlikdagi ifoda plani fonetik so'z hisoblanadi.

Ikki kichik pauza orasiga joylashgan va yagona o'rg'u bilan aytiladigan bir yoki bir nechta bo'g'inning yig'indisi takt deyiladi. Havo bulut edi. Bu gap 2 ta taktdan iborat. Birinchisi – havo, ikkinchi bulut edi. Takt gapdagi o'rg'uli so'zga bog'liq bo'ladi. Gapimizdagi uchinchi so'z o'rg'u olmagan uchun 2 ta takt ajratilyapti.

Har ikki tomondan chuqur pauza bilan ajratiladigan fonetik birlikka fraza (jumla) deyiladi. Fraza gapga to'g'ri kelmaydi. Gap – sintakti birlik. Fraza fonetik

birlik hisoblanadi. Biz ona – Vatanimizni ko'z qorachig'imizdek asraymiz. Bu sintaktik jihatdan bitta gapdan, fonetik jihatdan 2 ta frazadan tashkil topgan.

Ma'lumki, unli tovushlar bo'g'in hosil qiladi. So'zda nechta unli bo'lsa, bo'g'in miqdori ham shuncha bo'ladi. Ol – ma (2 ta unli 2 bo'g'in), ma'naviyat (4 ta unli 4 bo'g'in).

Bo'g'in tuzilishi jihatidan quyidagi tiplarga ajratiladi:

1. Bir unlidan iborat: o-ta, o-na, a-ka.

2. Bir unli va bir undoshdan iborat:

a) unli + undosh – ot, ish, ol.

b) undosh + unli – lo-la, do-na, to-za.

3. Bir unli va ikki undoshdan iborat:

a) undosh + unli + undosh: kuch, qosh, mak-tab.

b) unli + ikki undosh: aql, ilm, erk.

v) ikki undosh + unli: fra-za, sta-kan.

4. Bir unli va uch undoshdan iborat:

a) undosh + unli + ikki undosh: baxt, qirq, dard.

b) ikki undosh + unli + undosh: stol, trak-tor, xlor.

5. Bir unli va 4 undoshdan iborat.

a) ikki undosh + unli + ikki undosh: sport, shrift.

b) undosh + unli + uch undosh: punkt, tekst.

v) uch undosh + unli + undosh: skver, shtraf, skrip-ka.

Bug'inning CCV, CCVC, CCVCC, CVCCC, CCCVC kabi tiplari asosan rus tilidan o'zlashgan so'zlarda uchraydi. Turkiy tilga xos sof o'zbekcha so'zlarda bir tovushdan 4 tovushgacha bo'lgan bo'g'in tiplari mavjud. Bo'g'in unli yoki undosh fonema bilan tugashiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

unli bilan tugasa ochiq bo'g'in: bo-la, lo-la

undosh bilan tugasa yopiq bo'g'in: maktab, dehqon.

Tilda bo'g'inning amaliy ahamiyati katta.

1) Satrga sig'may qolgan so'zni ikkinchi satrga ko'chirish bo'g'in asosida amalga oshiriladi.

2) SHe'riyatning barmoq vazni bo'g'inlar sonining teng bo'lishiga asoslanadi.

3) Bog'cha bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish, yozishga o'rgatishda ham bo'g'in asosida ish olib boriladi.

4) Bo'g'in fonetik so'zning shakllanishida qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi.

Bo'g'in fonologiyada sillabema deb yuritiladi.

So'z tarkibidagi bo'g'inlardan birining yoki gaplardagi ayrim bo'laklarning boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishi o'rg'u deyiladi. O'rg'u fonologiyada aksentema deb yuritiladi.

Tilning qaysi sathidagi birliklarga aloqador bo'lishiga ko'ra o'rg'u quyidagi turlarga ajratiladi:

1) So'z o'rg'usi.

2) Gap o'rg'usi.

So'z o'rg'usi yuqorida ta'kidlanganidek, so'zning biror bo'g'iniga tushadi va uning quyidagi turlari bor:

1) fonetik tabiatiga ko'ra:

a) dinamik (zarb) o'rg'u – so'z tarkibidagi bo'g'inlardan birining, ayniqsa, unli tovushning kuchli zarb bilan talaffuz qilishga asoslanadi. O'zbek tili o'rg'usi dinamik o'rg'u hisoblanadi. ya'ni so'z tarkibidagi o'rg'uli bo'g'in zarb bilan aytiladi.

b) kvantativ o'rg'u – o'rg'uli bo'g'indagi unlining cho'ziq talaffuz qilinishi bilan xarakterlanadi.

v) tonik (musiqiy) o'rg'u. Bunday o'rg'u tovush tonining ko'tarilish va tushish ohangiga bog'liq bo'ladi. xitoy, yapon, serb tillarida musiqiy o'rg'u ishlatiladi.

2) tushish o'rniga ko'ra: bog'langan va erkin o'rg'u. Bog'langan o'rg'u doim so'zning biror bo'g'iniga tushadi. Masalan, turkiy tillarda – oxirgi bo'g'inga, venger va chex tillarida – birinchi bo'g'inga tushadi.

Erkin o'rg'u – so'zdagi turli bo'g'inlarga tushadi, rus tili o'rg'usi bunga misol bo'ladi. erkin o'rg'uli tillarda o'rg'uning o'rni so'z ma'nolarini farqlash funksiyasini ham bajaradi: zamók (qulf) va zámok (qal'a, saroy). O'zbek tili bog'langan o'rg'uga ega bo'lsada, ba'zan shunday holatlar uchraydi: 1) o'z so'z va o'zlashma omonim bo'lsa, atlás – átlas; 2) sifatlar ravishga ko'chganda: yangi (uy) – yangi (kelib-ketdi). Erkin o'rg'uga xos yana bir xususiyat shuki, u so'zga qo'shimcha qo'shilganda ham, aksariyat, boshqa joyga ko'chmaydi: narodы-narodov, narodami ...

Tilimizdagi bir qator qo'shimchalar o'rg'u olmaydi:

1) fe'ning bo'lishsiz shakli – ma.

2) dona son yasovchi –ta, chama son yashovchi – tacha qo'shimchalari.

3) ravish yasovchi: -day, -dek, cha.

4) shaxs-son qo'shimchalari: -man, -san, -miz, -siz – o'qiyman.

5) affiks yuklamalar: -mi, -chi, -u (-yu), -da, a, -ya, -ku, -oq, - yoq, -gina, -kina, -qina.

SHuningdek, kelib chiqishi jihatidan arab va tojik tiliga xos bo'lgan quyidagi so'zlarda ham o'rg'u oxirgi bo'g'inga tushmaydi.

a) ravishlar: doim, hozir, yangi.

b) yordamchi so'zlar: albatta, chunki, ammo, hatto, lekin, ba'zi, ba'zan.

v) olmoshlar: hamma, barcha, qancha, qanday, allkim, allanima, allaqancha, kimdir, qachondir, har kim, har qachon, har qaysi, hech nima, hech qanday, hech qaysi.

Gap o'rg'usi logik o'rg'u deb ham yuritiladi. Logik o'rg'uning qaysi so'zga tushishi so'zlovchining maqsadi va niyatiga bog'liq bo'ladi. so'zlovchi uchun muhim bo'lgan so'zning ma'nosini kuchaytirish uchun u alohida ohang bilan aytiladi.

1 sentyabr – Mustaqillik bayrami.

1 sentyabr – Mustaqillik bayrami.

1 sentyabr – Mustaqillik bayrami.

Umuman olganda, nutqining ifodaliligi va tushunarligini ta'minlashda o'rg'uning o'rni beqiyos.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Nutq fonetik jihatdan qanday bo'laklarga bo'linadi?
2. Segment va supersegment birliklar nima va ularning farqi?
3. Bo'g'in nima?

4. *Bo'g'inning qanday tiplari bor?*
5. *O'rg'u qanday bo'lakka tushishiga kura necha xil?*
6. *O'rg'uning fonetik tabiatiga ko'ra turlarini sanang va izohlang.*
7. *O'zbek tili o'rg'usini tavsiflab bering.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *SHoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980 y.*
2. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992 y.*
3. *Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.*
4. *Irisqulov A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.*
5. *Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent, 1992 y.*
6. *Nurmanov A., Yo'ldoshev V. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Toshkent, 2001 y.*
7. *Azizov O. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1996 y.*
8. *Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent, 1990 y.*

MAVZU: NUTQ JARAYONIDAGI TOVUSH O'ZGARISH HODISALARI. TRANSKRIPSIYA.

R E J A:

1. *Tovushlarning kombinator va pozision o'zgarishlari.*
2. *Singarmonizm va uning turlari.*
3. *Assimilyasiya va dissimilyasiya hodisalari.*
4. *Tovush orttirilishi hodisalari.*
5. *Tovush tushishi va unga bog'liq hodisalar.*
6. *Fonetik hodisalarning boshqa turlari.*
7. *Transkripsiya haqida ma'lumot.*

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|--|---------------------------|
| 1. <i>Kombinator o'zgarishlar.</i> | 9. <i>Epenteza.</i> |
| 2. <i>Pozitsion o'zgarishlar.</i> | 10. <i>Epiteza.</i> |
| 3. <i>Singarmonizm.</i> | 11. <i>Prokopa.</i> |
| 4. <i>Assimilyasiya, progressiv-regrissiv, to'liq-qisman, kontakt-distant.</i> | 12. <i>Sinkona.</i> |
| 5. <i>Dissimilyasiya.</i> | 13. <i>Apokona.</i> |
| 6. <i>Akkomodasiya.</i> | 14. <i>Sinerezis.</i> |
| 7. <i>Reduksiya.</i> | 15. <i>Eliziya.</i> |
| 8. <i>Proteza.</i> | 16. <i>Gaplologiya.</i> |
| | 17. <i>Transkripsiya.</i> |

Nutq jarayonida tovushlar turli o'zgarishlarga uchraydi (ketdi-ketti, nonvoy-novvoy). Bunga fonemalarning turli ottenkalarda (variantlarda) namoyon bo'lishi sabab bo'ladi. ular dastlab ikkiga bo'linadi:

1. Kombinator o'zgarishlar – nutq jarayonida tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida ro'y beradigan o'zgarishlardir. Bunga assimilyasiya, dissimilyasiya, akkomodatsiya, gaplologiya, sinerezis, eliziya kabi hodisalar kiradi.

2. Pozitsion o'zgarishlar – tovushlarning talaffuziga ularning so'zda tutgan o'rni, o'rg'uning ta'siri kabilarning sabab bo'lishi hodisasidir. Bunga reduksiya, proteza, epenteza, epiteza, prokopa, sinkopa, apokopa, metateza kabi hodisalar kiradi. Bu hodisalar fonetik jarayonda yakka va aralash holda ishtirok etishi mumkin.

Turkiy tillarning barchasi, jumladan, o'zbek tili uchun ham singarmonizm hodisasi xarakterli sanaladi. Ayniqsa, o'zbek tilining tarixiy bosqichlarida singarmonizm keng tarqalgan edi. Hozirgi o'zbek adabiy tili va unga asos bo'lgan shevalarda singarmonizm zaiflashib bormoqda, lekin qipchoq va o'g'o'z lahjalariga oid shevalarda bu hodisa hali ham mustahkam o'rin egallaydi. Singarmonizm – sin – o'xshash, xarmoni ohang (lotincha) so'zlaridan olingan bo'lib, tovushlar ohangdoshligi degan ma'noni ifodalaydi. Singarmonizm deyilganda tovushlarning bir-biriga uyg'unlashuvi tushuniladi. Tovushlarning uyg'unlashuvi unli va undosh tovushlarda kuzatiladi. (unli tovushlar un) So'z o'zagidagi unli tovushlar qo'shimchalardagi unli tovushlarni o'ziga moslashtirsa unlilar uyg'unligi deyiladi. Bular 2 xil bo'ladi: 1) tanglay singarmonizm; 2) lab singarmonizmi.

a) tanglay uyg'unligida unlilar qattiq va yumshoqlik, til oldi va til orqalik jihatidan moslashadi. Masalan: ketamiz, temirchilik; umrum, uyqum. Boshidagi ikki so'zda til oldi, keyingi so'zlarda esa til orqa unlilarining moslashuvi bor.

b) lab uyg'unligida so'zning birinchi bo'g'inida u va o' lablangan unlilari kelsa, keyingi bo'g'inlarda ham lablangan unlilar keladi: ko'rib - ko'rub.

Undoshlar uyg'unligida o'zakning oxiridagi undosh tovushga, qo'shimchaning boshidagi undosh tovush moslashadi: boshta(da), o'tka(ga).

Assimilyasiya – ikki xil noo'xshash tovushlarning bir-biriga ta'siri tufayli o'xshash tovushlarga aylanish hodisasidir. Uning quyidagi turlari bor:

A. Progressiv assimilyasiya – bunda oldin kelgan tovush ta'sir etib, keyingi tovushni o'ziga o'xshatadi: ketdi – ketti, aytdi – aytti.

B. Regressiv assimilyasiya – bunda keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir etadi va o'ziga moslashtiradi: karnay – kannay, tuzsin – tussin.

B. To'liq assimilyasiya – bunda tovushlar bir-biriga aynan moslashadi: nonvoy – novvoy.

Г. To'liqsiz assimilyasiya – bunda tovushlar o'zaro qisman moslashadi: tanbur – tambur, yuzta – yusta. Bunda «b» lab-lab undoshi «n» til undoshini lab-lab undosh «m»ga aylantirish bilan o'ziga moslashtirgan.

Д. Kontakt assimilyasiya – moslashayotgan tovushlarning ketma-ket joylashuvidir, yuqoridagi misollar.

E. Distant assimilyasiya – bir-biridan o'zoqda joylashgan tovushlarning moslashuvi: sichqon – chichqon, soch-choch.

Dissimilyasiya – so'z tarkibidagi bir xil yoki o'xshash tovushlardan birining noo'xshash tovushga aylanib qolishi hodisasi: birorta – bironta (ror - ron), qisqa-kista

(ss - st). Bu hodisa assimilyasiyaning aksi hisoblanadi. uning assimilyasiya kabi bir necha ko'rinishlari mavjud:

1. Progressiv dissimilyasiya – bunda keyingi tovush o'zgaradi: zarur-zaril, nonni-nondi.
2. Regressiv dissimilyasiya – bunda oldingi tovush o'zgaradi: maqtanmoq – maxtanmoq.
3. To'liq dissimilyasiya – bunda ikkita bir xil tovushdan biri noo'xshash tovushga aylanadi: kissa-kista, nonni-nondi.
4. To'liqsiz dissimilyasiya. Bunda qisman o'xshash tovushlarning artikulyasion xususiyatlaridan ayrimlarigina o'zgaradi. Masalan, uchta-ushta, maqtov-maxtov. Bu misollardagi (cht>sht, qt>xt) «ch» va «t»; «q» va «t» undoshlarining barchasi portlovchidir, ammo «t» ning ta'sirida «ch» sirg'aluvchi «sh» ga, «q» esa sirg'aluvchi «x» ga aylangan.
5. Kontakt dissimilyasiya – bunda yonma-yon to'rgan tovushlardan biri o'zgaradi: maqsad-maxsad, zarar.
6. Distant dissimilyasiya. Bunda dissimilyasiyaga uchrayotgan tovushlar bir-biridan uzoqroqda joylashgan bo'ladi: birorta-bironta.

Tovushlarning tushishi bilan bog'liq hodisalar ham nutqda ko'p uchraydi. Ularga quyidagilar kirradi:

1. Prokopa (ankopa) – so'z boshidagi tovushning tushib qolishi: yiring-iring, yirik-irik, YUsof-Usuf. Prokopa asosan tarixiy jarayon maxsuli bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramaydi.
2. Sinkopa – so'z o'rtasidagi tovushning tushib qolishi. Bu hodisa reduksiyaning davomi sifatida yuzaga keladi, ya'ni o'zak morfemaga affiks qo'shilishi natijasida, o'rg'u oxirgi bo'g'inga ko'chib, o'zakdagi unli kuchsizlanadi va tushib qoladi: burun-burnim, o'g'il-o'g'lim.
3. Apokopa – so'z oxiridagi tovushning yoki qo'shma so'z komponentlarining tushirib qoldirilishi: baland-balan, xursand-xursan, Toshkent-toshken, kilogramm-kilo.
4. Siperizis – so'z tarkibida yondosh qo'llangan ikki unlining diftonglashuvi – bir cho'ziq unli holiga kelishi: maorif – morif, saodat – so:dat, mutolaa – mutola.
5. Eliziya – unli tovush bilan tugagan so'zga unli bilan boshlangan so'zning qo'shilishi natijasida bir unli tovushning tushishi. Masalan, ayta oldi – aytoldi, Dili orom – Dilorom.

Nutq jarayonida tovushlarning bir-biriga ta'sir etishi natijasida tovush orttirilishi ham ro'y beradi. Tovush orttirishining quyidagi turlari mavjud:

1. Proteza – so'z boshida tovush orttirilishi: ip-yip, ilon-yilon, rus-o'rus, stol-istol.
2. Epenteza – so'z o'rtasida tovush orttirilishi. Bu hodisa asosan boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar tarkibida yuz beradi. Bunda yonma-yon kelgan unlilar orasida bir undosh tovush, undoshlar o'rtasiga bir unli qo'shib aytiladi: doim-doyim, oila-oyila, hukm-hukum, faxr-faxir, radio-radiyo.
3. Epiteza – so'z oxirida tovush orttirilishi hodisasi: kiosk-kisoka, tank-tank.

Tovush o'zgarishlarining yana quyidagi turlari ham bor:

- 1) reduksiya – unli fonemaning o'rg'usiz bo'g'inda kuchsizlanishi: bilan –b:lan, biroq-b:roq, bilim-b:lim.

- 2) akkomodatsiya – bir tovush talaffuzining ikkinchi tovush talaffuziga moslanishi. Masalan, «i» til oldi unlisi qiz, g'isht, qiziq kabi so'zlarda q, g' undoshlaridan keyin kelgani uchun til orqa ottenka bilan aytiladi.
- 3) metateza – so'z tarkbidagi tovushlarning o'zaro o'rin almashishi: tuproq-turpoq, isitma-istima, aylanmoq-aynalmoq ...
- 4) gaplologiya – so'z tarkibida yonma-yon kelgan ikkita bir-biriga o'xshash bo'g'inlardan birining tushirilishi: qaynona-qaynana-qayna, Mamarasul-Marasul.

Transkripsiya – fonemalarning nutqdagi turli ottenkalarini, shuningdek, mahalliy lahja va shevalarning fonetik xususiyatlarini yozuvda aniq ifodalash uchun qo'llaniladigan maxsus grafik belgilar tizimidir. Bunday tizimdan xalq og'zaki ijodi namunalari, o'zga til matnlarini yozib olishda keng foydalaniladi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. *Fonetik o'zgarishlar dastlab qanday turlarga bo'linadi?*
2. *Tovushlarning kombinator va pozision o'zgarishlari qanday yuzaga keladi?*
3. *Singarmonizm nima? Uning qanday turlari bor?*
4. *Tovush tushishi hodisasiga qaysi fonetik hodisalar kiradi?*
5. *Tovush orttirilishiga qaysi fonetik hodisalar kiradi?*
6. *Assimilyasiya va dissimilyasiya qaysi jihati bilan o'xshaydi, qaysi jihati bilan bir-biridan farqlanadi?*
7. *Metateza nima?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *SHoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980 y.*
2. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992 y.*
3. *Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.*
4. *Irisqulov A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 y.*
5. *Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent, 1992 y.*
6. *Nurmanov A., Yo'ldoshev V. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. Toshkent, 2001 y.*
7. *Azizov O. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1996 y.*
8. *Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. Toshkent, 1990 y.*

MAVZU: O'ZBEK TILINING TALAFFUZ ME'YORLARI.

REJA:

1. Orfoepiya haqida ma'lumot.
2. Unli tovushlar orfoepiyasi.
3. Undosh tovushlar orfoepiyasi.
4. Boshqa tillardan kirgan so'zlarning talaffuz me'yorlari.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|-------------------------|-------------------------------|
| 1) Og'zaki nutq; | 6) Unlilar talaffuzi; |
| 2) Nutq madaniyati; | 7) Ayrim undoshlar talaffuzi; |
| 3) Talaffuz me'yorlari; | 8) Oddiy sszlashuv tili; |
| 4) Orfoepiya; | 9) Og'zaki adabiy til; |
| 5) Orfoepik lug'at; | 10) YOzma nutq. |

Adabiy tilning og'zaki shakli me'yorlari talaffuz va nutqiy ohangda namoyon bo'ladi. Uni tilshunoslikning orfoepiya bo'limi o'rganadi. Adabiy talaffuz qoidalari lug'atlar orqali amalga oshiriladi. Orfoepiya – grekcha – «to'g'ri talaffuz» degan ma'noni bildiradi.

Orfoepiya so'zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, so'z va qo'shimchalardan iborat so'z formalarini to'g'ri talaffuz qilish me'yorlari tizimidir.

Fikr almashish jarayonida to'g'ri talaffuz muhim ahamiyatga ega. To'g'ri talaffuz esa nutq madaniyatining asosiy belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. CHunki adabiy tilning muhim xususiyati, uning muayyan me'yorga bo'ysinishi bilan belgilanadi. SHuning uchun ham o'quvchi va talabalarda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarining shakllantirilishiga ta'limning barcha bosqichlarida jiddiy e'tibor beriladi.

O'zbek tilshunosligida orfoepiya hodisalari etarli tadqiq etilgan. SHunga qaramay, 1984 yilda «O'zbek adabiy talaffuz lug'ati» nashr etilgan. Lug'atda o'zbek tilida faol qo'llanuvchi 20000 dan ortiq so'z va so'z shakllarining adabiy me'yoriy talaffuzi belgilab beriladi.

Unli tovushlar orfoepiyasi deganda quyidagilar hisobga olinadi.

i unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zlarda qisqa va old qator (ingichka) unli tarzida talaffuz qilinadi: til, tish, bir, sir kabi; 2) q, g', x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda orqa qator (yo'g'on) unli tarzida va biroz cho'ziq aytiladi: qish, g'isht.

3) y, nd, h undoshlaridan keyin biroz cho'ziq talaffuz etiladi: kiy, ming, hid, his, hind.

4) ko'p bo'g'inli so'zlarning o'rg'usiz bo'g'inida kuchsiz va qisqa (bilan, biroq, sira kabi), o'rg'uli bo'g'inida esa kuchli va cho'ziq talaffuz etiladi (nozik, alik).

u unlisi: 1) bir bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zlarning o'rg'usiz bo'g'inida qisqa (tush, pul, gul, buloq, bug'doy kabi), o'rg'uli bo'g'inida cho'ziqroq talaffuz etiladi: bulut, etuk, popuk kabi.

2) *k*, *g*, *u* undoshlaridan keyin old qator unli tarzida, *q*, *g'*, *x* undoshlaridan so'ng esa orqa qator unli tarzida talaffuz etiladi.

3) –uvchi, -uv affikslari tarkibida cho'ziqroq aytiladi: yozuvchi, o'quvchi, oluv, qo'shuv.

o' unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zlarda, shuningdek ko'p bo'g'inli so'zlarning o'rg'usiz bo'g'inida qisqa talaffuz etiladi: zo'r, to'r, ro'mol, so'roq.

2) *k*, *g*, *y*, *x* undoshlaridan so'ng old qator unli tarzida; *q*, *g'*, *x* undoshlaridan keyin orqa qator unli tarzida talaffuz etiladi. Masalan, ko'l va qo'l, ho'l va xo'r.

e unlisi: 1) so'z va bo'g'in boshida kengroq (*ekin*, *erkin*, *es*), bo'g'in ichida bir oz torroq (*kecha*, *beda*, *tekin*) talaffuz etiladi.

a unlisi: 1) sayoz til orqa *k*, *g* undoshlari bilan yonma-yon kelganda old qator unli tarzida (*kam*, *gap*, *katta*), chuqur til orqa undoshlari *q*, *g'*, *x* bilan yondosh qo'llanganda orqa qator unli tarzida aytiladi.

o unlisi: 1) *k*, *g* undoshlaridan so'ng yumshoq, *q*, *g'*, *x* chuqur til orqa undoshlaridan so'ng yo'g'on unli tarzida talaffuz etiladi.

2) o'rg'uli bo'g'inida biroz cho'ziq talaffuz etiladi. Bog'bon, obod so'zlarining birinchi va oxirgi bo'g'inlaridagi *o* unlisi talaffuzini qiyoslang.

3) *y* va *h* undoshlaridan keyin ham biroz yumshoq va ingichka unli holida talaffuz etiladi.

Undosh tovushlar orfoepiyasi ko'proq kombinator va pozision omillar ta'sirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bog'liq bo'ladi.

b undoshi: 1) so'z boshida, unli yoki jarangli undosh bilan yonma-yon qo'llanganda jarangli bo'ladi. 2) jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qo'llanganda va so'z oxirida jarangsiz «*p*» tarzida talaffuz etiladi. Ibtidoiy > iptidoiy, jabha > japha, maktab(*p*), g'azab(*p*).

3) ikki unli orasida ko'pincha sirg'aluvchi «*v*» ga o'tadi: kabob-kavop, ishqiboz-ishqivoz, qaboq-qovoq.

v undoshi: 1) so'z o'rtasida (*gavda*, *tovuq*), oxirida (*ov*, *suv*) ishlatiladi. 2) o'zbek tiliga arab va rus tillaridan o'zlashgan so'zlarda «lab-tish» *v* ishlatiladi va u ayrim o'rinlarda jarangsizlashadi: avtomat – aftomat, arxiv – raxif, avtobus – aftobus, sovxoz – sofxoz.

g undoshi: 1) so'zning barcha o'rinlarida kela oladi: *gul*, *agar*, *barg*. 2) qadimgi turkiy tilda so'z boshida qo'llanmagan. 3) so'z oxirida kelishi ko'proq o'zlashma so'zlarda uchraydi: *pedagog*, *barg*.

k undoshi: 1) so'zning barcha o'rinlarida keladi (*katta*, *aka*, *o'rdak*). 2) *k* – undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik affiksi qo'shilganda, asosdagi «*k*» jarangli «*g*» ga o'tadi: *telpak* – *telpagim*, *yurak* – *yuragim*. Bir bo'g'inli va ayrim so'zlashma so'zlar bundan mustasno (*yuk-yukim*, *ishtirok-ishtirokim*). «*k*» dan so'ng unli tovushlarning faqat old qator ottenkalari (variantlari) qo'llanadi: *ko'l*, *gul*, *kitob*.

d, *t* undoshlari: 1) so'z va bo'g'in boshida o'zgarishsiz, to'liq aytiladi: *beda*, *dadil*, *dona*, *ta'til*, *teng*. 2) *d* undoshi so'z oxirida jarangsizlashib, *t*, undoshiga moyil

aytiladi: madad-madat, mard-mart, obod-obot. 3) bu undoshlar soʻz oxirida baʻzan tushib qoladi: dasht – dash, goʻsht – goʻsh, xursand – xursan, Samarqand – samarqan.

j undoshi: (qorishiq portlovchi), bu fonema soʻzning boshida (joy, jiyda), oʻrtasida (majlis, ojiz) va oxirida (haj, toj) kela oladi. Soʻz ichida jarangsiz undosh bilan yonma-yon boʻlganda jarangsizlashadi – ijtimoiy > ishtimoiy.

ch undoshi: 1) soʻzning barcha oʻrinlarida keladi: choy, chin, koʻcha, omoch, tilmoch. 2) jarangsiz undosh taʻsirida baʻzan «sh» ga oʻtadi: uchta – ushta, ichdi – ishti.

z undoshi: 1) soʻz boshida (zamon, zafar), oʻrtasida (bozor, ozod) va oxirida (aziz, mayiz) qoʻllanadi. 2) baʻzan jarangsiz undosh taʻsirida «s» ga oʻtadi: iztirob – istirob, mazkur – maskur, sakkiz – sakkis, tannoz – tannos.

n undoshi – soʻzning barcha oʻrinlarida ishlatiladi (pok, nok, anor, tushun) lab undoshlaridan oldin qoʻllanganda, «m» ga oʻtadi: shanba – shamba, tanbur – tambur.

f undoshi: 1) bu undosh sof turkiy soʻzlarda qoʻllanmaydi, faqat oʻzlashmalarda uchraydi: farzand (toj), farq (ar.), fabrika (rus). 2) soʻzning turli oʻrinlarida *p* undoshiga moyil talaffuz etiladi: nafas-napas, qafas-qapas, taraf-tarap, ulfat-ulpat.

q undoshi soʻzning barcha oʻrinlarida kela oladi. 2) koʻp boʻgʻinli soʻzlarga unli bilan boshlangan affiks qoʻshilganda, *q* undoshi «gʻ» ga oʻtadi: taroq-tarogʻim, soʻroq-soʻrogʻim. Ayrim soʻzlarda *q* – *x* ga oʻtadi: maqtanmoq – maxtanmoq, toʻqson – toʻxson.

gʻ undoshi: 1) soʻzning barcha oʻrinlarida kela oladi, (gʻor, gʻoz, togʻora, sogʻ, mablagʻ). 2) shevalarda soʻz oxiridagi «gʻ» ning «v» ga oʻtishi uchraydi: togʻ-tov, sogʻ-sov.

Qolgan undosh tovushlar soʻzning turli oʻrinlarida har xil vaziyatda kelsa ham, asosan, oʻzgarishsiz talaffuz etiladi.

Boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarning oʻzbek tilidagi talaffuzi haqidagi quyidagi fikrlarni keltirish mumkin.

1. Oʻzlashma soʻzlardagi ishlatiluvchi *f* undoshini hozirgi oʻzbek adabiy tilida *p* deb talaffuz qilish meʼyor hisoblanadi: ferma-perma, faner-paner.

2. Arab tilidan oʻzlashtirilgan taʼna, daʼvo, maʼno kabi soʻzlarning birinchi boʻgʻinidagi unlilar arabcha «ayp» tovushi taʻsirida boʻgʻiz artikulyasiyasi bilan choʻziqroq talaffuz etiladi.

3. Rus tilidan oʻzlashgan soʻzlarda «i» unlisi oʻzbek tilining «i» tovushidan torroq va choʻziqroq talaffuz etiladi: til-tir > ti:r, tish-tir > ti:r.

4. Rus tilidagi oʻzlashtirilgan soʻzlardan oʻrta, keng, lablangan «o» unlisi oʻrgʻili boʻgʻinda oʻzbek tilidagi oʻrta keng, lablangan «oʻ» dan kengroq talaffuz etiladi: toʻn-ton, tok-tok (rus).

5. Rus tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlarning oxirida lab-tish *v* undoshi jarangsiz *f* tarzida talaffuz qilinadi: aktiv-aktif, ustav-ustaf, baʻzan soʻz ichida ham jarangsizlashadi: avtomat-aftomat, avtobus-aftobus. Lekin oʻzbekcha soʻzlarda qoʻllanadigan «f» har doim oʻzgarishsiz talaffuz qilinadi va bu adabiy til uchun meʼyor hisoblanadi.

Orfoepiya qoidalarini yaxshi bilish ogʻzaki adabiy til meʼyorlariga amal qilish demakdir.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Orfoepiya nima?
2. Orfoepiyaning adabiy tildagi ahamiyati?
3. Unli tovushlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Jarangli undoshlarning talaffuzda jarangsiz aytilishi qachon ro'y beradi?
5. Qaysi undoshlardan so'ng qo'llanganda til oldi unlilari til orqa ottenka bilan aytiladi?
6. Boshqa tillardan olingan o'zlashma so'zlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SHoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent, 1980 y.
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent, 1992 y.
3. Jamolxonov X. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent, 2005 y.
4. Begmatov E. *Adabiy talaffuz madaniyati*. Toshkent, 1982 y.
5. *O'zbek adabiy talaffuzi lug'ati*. Toshkent, 1984 y.
6. Mirtojiyev M. *O'zbek tili fonetikasi*. Toshkent, 1998 y.

MAVZU: GRAFIKA. ORFOGRAFIYA TAMOYILLARI.

R E J A:

1. *Grafika haqida umumiy ma'lumot.*
2. *YAngi alifbo va uning o'ziga xosliklari.*
3. *O'zbek imlosining asosiy tamoyillari.*

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

- | | |
|---------------------|-------------------------------|
| 1. Grafika. | 10. YAngi imlo qoidolari |
| 2. Grafema | 11. Orfografiya |
| 3. Fonografema | 12. Imlo tamoyillari |
| 4. Punktema | 13. Morfologik tamoyil |
| 5. Logografema | 14. Fonetik tamoyil |
| 6. Simvol | 15. Grafik tamoyil |
| 7. O'zbek yozuvlari | 16. Tarixiy an'anaviy tamoyil |
| 8. Alifbo | 17. Farqlash tamoyili. |
| 9. YAngi alifbo | |

Grafika grekcha so'z bo'lib, tilshunoslikda yozuv degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda grafika harflar yoki chiziqlar vositasida aks ettiriladigan shartli belgilarning muayyan sistemasidir.

Dunyodagi aksariyat tillar o'z yozuv tizimiga ega bo'lib, bu ana shu tillarning tovush tomonini ifodalash uchun qabul qilingan shartli belgilardan iboratdir.

Odatda, har qanday tanlab olingan grafik belgi shakl va mazmun birligidan tashkil topadi. Masalan, a harfining shakliiy tomoni A, a; A, a kabi bosmacha va yozmacha, katta va kichik harflar ko'rinishidan iborat. Mazmun tomoni esa aka, ona kabi so'zlarda qo'llanuvchi unli, quyi keng, old qator, lablanmagan tovushni ifodalaydi.

O'zbek tilining grafik tizimi quyidagilardan iborat.

1. Fonografemalar yoki harflar – tildagi fonemalarni ifodalaydi. Masalan, «a» harfi «a» tovushini, «z» harfi «z» tovushini.
2. Punktemamalar – tinish belgilari majmui.
3. CHiziqcha (defis), o'rg'u belgisi ('), xat boshi (abzas), prosent (%) va paragraf (§) belgilari.
4. Logografemalar – sonlarni ifodalovchi arab va rim raqamlarining yozuv shakli. Masalan: 1, 2, 3, 4 yoki I (bir), X (o'n), S (yuz) kabi.
5. Simvollar – ilm-fanning ma'lum sohalarida qabul qilingan maxsus belgilar. Masalan, matematik simvollar qo'shuv (+), ayiruv (-), ildiz ($\sqrt{}$), katta (>) kabilar.
6. Transkripsion belgilar.

Grafikaning asosiy va yordamchi belgilarini farqlash lozim. Harflar va ishoralar grafikaning asosiy belgilari sanaladi. Grafikaning vazifasi grafemalarning shakliiy xususiyatlarini to'g'ri yozish, satrga nisbatan to'g'ri joylashtirish kabilarni aniqlashdan iborat.

Ma'lumki, harflarning qat'iy tartibda joylashuviga alifbo deyiladi. Alifbo asosida yozuv shakllanadi.

O'zbek xalqi ham o'z yozuviga ega bo'lgan eng qadimiy xalqlardan biri sanaladi. U o'zining uzoq yillik tarixiy mobaynida oromiy, so'g'd, xorazm, avesto (mixxat), turkiy-run, uyg'ur va arab yozuvlaridan keng foydalangan. O'rta Osiyo xalqlari dastlab dunyodagi juda ko'p yozuvlar uchun asos bo'lgan finikiya yozuvi asosida yaratilgan oromiy yozuvidan foydalanganlar. Bu yozuv asosan eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda ishlatilgan. Er.av. III-I asrlarda so'g'd, Avesto (mixxat) yozuvlaridan, I-V asrlarda esa so'g'd yozuvida keng foydalanganlar. V-VIII asrlarda so'g'd yozuvini qayta ishlash natijasida yaratilgan O'rxun-Enasoy yozuvlaridan foydalanganlar. Keyingi davrlarda uyg'ur, arab yozuvlari keng iste'molda bo'lgan. Arab yozuvini xalqimiz eng uzoq vaqt qo'llaganlar.

1929-1940 yillarda lotin yozuvi asosidagi alifbo, 1940-1995 yillarda esa rus grafikasi asosidagi alifbo amalda bo'lib keldi.

1993 yilning 2 sentyabrida «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Unda yangi o'zbek alifbosining tarkibi 31 harf va 1 ta tutuq belgisidan iborat deb belgilandi.

1995 yilning 6 mayida «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi qonun»ga o'zgartirish kiritiladi. Unga ko'ra alifbo tarkibi 26 ta harf, 3 ta harf birikmasi va 1 ta tutuq belgisidan iborat deb belgilandi. 1995 yilning 6 mayida

O'zbekiston Oliy Majlisi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi qonun»ga o'zgartirish kiritadi. Unga ko'ra 1-moddadagi «31 harf va 1 ta tutuq belgisi» so'zlari «26 ta harf va 3 ta harflar birikmasi» so'zlari bilan almashtirilsin deyiladi. Bu o'rinda tutiq belgisi alifbo tarkibidan chiqariladi. Uning qo'llanish o'rinlari (tovush bo'lmaganligi uchun) imloda beriladigan bo'ldi.

Alifbodagi 241 xil harf 24 tovushni (fonemani), 2 ta harf S va J esa 4 ta tovushni ifodalaydi. Masalan, S harfi: 1) sim, charos so'zlaridagi til oldi jarangsiz sirg'aluvchi tovushni; 2) sex, sentner, tansa, aksiya (undoshdan keyin) kabi o'zlashma so'zlardagi «s» tovushi ifodalash uchun yoziladi. J harfi: 1) joy, jo'ja so'zlaridagi qorishiq tovushni; 2) ajdar, jurnal kabi o'zlashma so'zlardagi sirg'aluvchi tovushni ifodalash uchun yoziladi.

2004 yilning 30 aprelida O'zbekiston Respublikasining «.... ayrim qonun xujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunida lotin o'zbek yozuviga to'la o'tish muddati 2005 yil 1 sentyabrdan 2010 yilning 1 sentyabrigacha uzaytirildi.

Lotin alifbosini qabul qilish orqali o'zbek tilining milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi yozuvga ega bo'ldik. SHuningdek, alifbomiz ingliz tili asosida ishlab chiqilgan va dunyo miqyosida amal qilayotgan kompyuter sistemasiga moslandi, bu bilan o'zbekcha matnni dunyoning istalgan nuqtasiga uzatish imkoni tug'ildi.

Orfografiya (to'g'ri - yozaman) yozuv tizimining ikkinchi qismi bo'lib, tilshunoslik fanining alohida bir bo'limidir. U to'g'ri yozish me'yorlarini belgilovchi qoidalar tizimidan tarkib topadi. To'g'ri yozish imlo savodxonligi deb ham yuritiladi. YOzma nutq yagona tarzda yozishning ma'lum ilmiy qonun qoidalari tizimi bo'lgan imlo va uning tamoyillariga tayanadi.

Grafika ham, orfografiya ham yozuv bilan bog'liq bo'lsada, ular mazmunan farqlanadi. Masalan, maktab so'zidagi harflarning to'g'ri yozilishini (balandligi, kengligi, ulanishi, tuzilishi kabi jihatlaridan) grafika aniqlasa, so'z oxiridagi «b» undoshining og'zaki nutqda jarangsizlashib «p» tarzida aytilsada (maktab) «b» deb yozilishini imlo me'yorlari belgilaydi.

1995 yilning 24 avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvining asosiy imlo qoidalari ham tasdiqlandi. Hozirgina amal qilib kelingan imlo qoidalari 1956 yilning 4 apreldan boshlab joriy qilingan bo'lib, o'zbek tilshunosligining so'nggi yillardagi sezilarli taraqqiyoti, til hodisalarini chuqur tushunish kabilar imlo qoidalari yangilash zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu imlo qoidalari mazmun va mohiyatiga ko'ra, tuzilish jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Oldingi imlo qoidalari quyidagi 5 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Ayrim harflarning imlosi (1-30 – qoidalar).
2. O'zbek negiz va qo'shimchalar imlosi (31-55 – qoidalar).
3. Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi (56-58 – qoidalar).
4. Bo'g'in ko'chirilishi (59-62 – qoidalar).
5. Bosh harflarning yozilishi (63-72 – qoidalar).

YAngi imlo qoidalari quyidagi 7 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi.

Unlilar imlosi (1-7 – qoidalar).

Undoshlar imlosi (8-32 – qoidalar).

2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37 – qoidalar).

3. Qo'shib yozish (38-50 – qoidalar).

4. CHiziqcha bilan yozish (51-58 – qoidalar).

5. Ajratib yozish (57-65 – qoidalar).

6. Bosh harflar imlosi (66-74 – qoidalar).

7. Ko'chirish qoidalari (75-82 – qoidalar).

Imlo qoidalarini yaxshi bilish yozma nutq mazmunini to'g'ri va aniq idrok qilishga yordam beradi.

Orfografiya prinsiplari imlo qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan tamoyillardir. Ularning quyidagi turlari bor:

1. Morfologik tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra, so'zlar va ularning tarkibiy qismlari og'zaki nutqdagi talaffuz shakliga qarab emas, balki asliga muvofiq yoziladi. Masalan:

1) kitob, maktab, savod kabi so'zlarning oxiridagi b, d undoshlari jarangsiz p, t tarzida aytilsa ham, asliga muvofiq yoziladi;

2) kulib, umrim, uyqum so'zlaridagi i unlisi u tarzida, shanba, tanbal so'zlaridagi «n» undoshi «m» tarzida aytilsa ham tipik shakliga ko'ra yoziladi;

3) durust, go'sht, g'isht kabi so'zlarda so'z oxiridagi yonma-yon kelgan undoshning oxirgisi talaffuz qilinmaydi, ammo yozuvda saqlanadi;

4) ishga (ishka), Toshkentdan (Toshkenttan), sutday (suttay) kabi so'zlaridagi qo'shimchalardagi d undoshi (-ga, -dan, -day) jarangsiz undosh tarzida aytilsa ham «d» bilan tyoziladi.

O'zbek tilida morfologik tamoyil asosi va etakchi tamoyil bo'lib, so'z asoslari va qo'shimchalarni yozishda bir xillikni ta'minlaydi. O'zbek tilida qo'shimchalar asosan morfologik tamoyilga ko'ra yoziladi. Masalan, egalik qo'shimchalari -m (-im), -ng(ing), -si(-i), -miz(-imiz), -ngiz(-ingiz) kelishik qo'shimchalari -ning, -ni, -da, -dan; kesimlik qo'shimchalari -man, -san, -miz, -siz qo'shimchalari og'zaki nutqda qanday aytilishidan qat'iy nazar, imloda o'zining bir xil morfologik shaklini saqlagan holda yoziladi.

2. Fonetik prinsip. Bu tamoyil asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra so'z yoki so'z qismlari talaffuzdagi ko'rinishiga mos ravishda yoziladi: ek+gan – ekkan, tog'+ga – toqqa, kes+dir – kestir.

Quyidagi holatlarda fonetik tamoyilga ko'ra yoziladi:

a) ayrim otlarga egalik qo'shimchasi qo'yilganda: ko'ngil-ko'nglim, o'g'il-o'g'lim;

b) ayrim sifatlardan fe'l yasalganda: ulug'-ulg'aymoq, sariq-sarg'aymoq;

v) qotmoq, achimoq, isimoq fe'llaridan sifat yasalganda: qot(moq) > qattiq, achi > achchiq, ichi(moq) > issiq;

g) son, ot, yosh, ong so'zlaridan fe'l yasalganda: son > sana, ot > atamoq, ong, > anglamoq;

d) ikki, etti sonlariga –ov qo'shimchasi qo'shilganda ikkov, ettov;

e) «a» yoki «ya» bilan tugagan fe'llarga v yoki q qo'shib ot yasalganda: tanla – tanlov, so'ra – so'roq, bo'ya – bo'yoq, sayla – saylov;

yo) morfologik prinsip. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalarini so'zning ma'noli qismlarini ular qanday talaffuz qilinishidan qat'iy nazar, asliga (tipik shakliga) mos ravishda yozishni talab qiladi. Masalan, «g» bilan boshlangan (ga, gani, guncha, ...) qo'shimchalar sh, t, p, s kabi undoshlar bilan tugagan o'zaklarga qo'shilganda «k» tarzida aytilsa ham asliga ko'ra yoziladi: ishga (ishka), ketkan (ketgan) ...

3. Grafik yoki etimologik prinsip. Bu prinsip aslida imlo qoidalarini emas, grafika qoidalarini belgilaydi. Bu qoidaga ko'ra boshqa tillardan kirgan so'zlar, o'sha tilda qanday yozilsa, shunday yozishga asoslanadi: to'nna > tonna, istol > stol.

4. Tarixiy an'anaviy prinsip. Bu prinsipga asoslangan imlo qoidalarini so'zlarning yoki so'z shakllarining qadimdan odat bo'lib qolgan formada yoki an'anaga mos shaklda yozilishini me'yor tarzida belgilaydi: taqozo > taqozo(yoz), serkov > cherkov, dir – dur.

5. Differensiasiya prinsipi. Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga ko'ra, shakli bir xil bo'lgan (omonim) so'zlar yozuvda diakritik belgilar ishlatish orqali farqlanadi: átlas (geografiya) – atlás (mato), hózir (ravish) – hozir (sifat). Ba'zan so'z tarkibidagi tovushga ko'ra ham ma'no farqlanadi.

1) jodi – jodu, urish – urush.

2) ganj – ganch, faqir – paqir.

3) she'r – sher, ta'na – tana.

Umuman olganda imlo qoidalarini yaratishda bu tamoyillarning barchasi o'ziga xos o'rin egallaydi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. *Grafika nima?*
2. *Grafemalarning qanday turlari bor?*
3. *Grafika bilan orfografiyaning farqi nima?*
4. *YAngi alifboning o'ziga xosliklari nimalar?*
5. *O'zbek yozuv tizimi tarixini gapiring.*
6. *Imlo tamoyili nima?*
7. *O'zbek tilining asosiy tamoyili qaysi?*
8. *YAna qanaqa tamoyillarni bilasiz?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *SHoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980 y.*
2. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992 y.*
3. *Jamolxonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y.*
4. *Rahmatullayev SH. Orfografiya qoidalarini – savodxonligimiz asosi. Toshkent, 1980 y.*
5. *O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini. Toshkent, 1995 y.*
6. *Rahmatullayev SH. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. Toshkent, 1999 y.*

Mavzu : O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI (1,2 – boblar)

Reja :

1. Unli harflar imlosi.
2. Undosh harflar imlosi.
3. Tutuq belgisining ishlatilish o‘rinlari/
4. Asos va qo‘shimchalar imlosi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

- | | |
|---|---|
| <ol style="list-style-type: none">1. Tovush.2. Harf.3. Tovush varianti.4. Yonma-yon kelgan unlilar.5. Yonma-yon kelgan undoshlar. | <ol style="list-style-type: none">6. Asos.7. Qo‘shimcha.8. Tovush o‘zgarishi.9. Tovush ortishi.10. Tovush tushishi. |
|---|---|

1. Aa harfi:

1) *aka, alanga, aloqa, og‘a; sentabr, noyabr* kabi so‘zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *bahor, zamon; savol, gavda; vasvasa* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida, vaqt, vahm kabi so‘zlarda *a* aytiladi va yoziladi.

2. Oo harfi:

1) *ona, omon, quyosh, fido, baho, xola, lotin; mukofot, mahorat* kabi so‘zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *boks, poyezd, tonna, talon; agronom, mikrofon; direktor, termos* kabi o‘zlashma so‘zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

3. Ii harfi:

1) *ish, iz, qil; xirmon, ilhom, ikki, ixtisos, shoyi, tulki; volida, piramida; bilan, biroq, sira, qishloq, chiroq* kabi so‘zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *o‘tin, o‘rik, bo‘lim* kabi oldingi bo‘g‘inida **o‘** unlisi keladigan so‘zlarning keyingi bo‘g‘inida **i** aytiladi va yoziladi.

4. Uu harfi:

1) *uy, kun; buzoq, buloq, Buxoro; butun, uchug, usul, yulduz; mafkura; ko‘zgu, uyqu; aluminiy, yubiley* kabi so‘zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *qovun, sovun, tovush, yovuz, qirg‘ovul, chirmovuq* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq bo‘g‘in boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

5. **O‘o‘ harfi** *o‘t, o‘q, o‘zbek, o‘simlik, do‘ppi; bo‘tako‘z, semizo‘t, gulko‘rpa, noo‘rin* kabi so‘zlarda orqa qator o‘rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

6. **Ee harfi** *ekin, esla, evara, ekran, eksport; kel, zehn; kecha, behi; telefon, teatr; poyezd, atelye; e‘lon, ne‘mat, she‘r* kabi so‘zlarda old qator o‘rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

7. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba'zan y undoshi qo'shib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) **ia:** *material, milliard, radiator; tabiat, shariat* kabi;

b) **io:** *biologiya, million, stadion, radio* kabi;

d) **ai:** *mozaika, ukrain, said, maishat* kabi;

e) **oi:** *alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila* kabi;

f) **ea:** *teatr, okean, laureat* kabi;

2) **ae, oe** unlilar so'z ichida kelganda ikkinchi unli y aytilsa ham, asliga muvofiq **e** yoziladi: *aerostat, poema* kabi.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, aorta, saodat, burjua, shuaro, inshoot, sanoat, vakuum, muammo, matbuot, tabiiy, rioya* va boshqalar.

UNDOSHLAR IMLOSI

8. Bb harfi:

1) *bobo, bahor, bir, majbur, zarb* kabi so'zlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, yuzlab, kelib* kabi so'zlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi;

3) *qibla, tobla* kabi so'zlarda ba'zan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.

9. **Pp harfi** *paxta, pichoq, opa, tepa, tup, yop* kabi so'zlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

10. Vv harfi:

1) *ov, suv, kuyov; ovoz, savol; volida, vatan* kabi so'zlarda ovozdor sirg'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o'zlashma so'zlarda **v** ba'zan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

11. Ff harfi:

1) *fan, fe'l, futbol, fizika; asfalt, juft; insof, isrof* kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *fasl, fayz, Fotima, fursat* kabi so'zlarda **f** tovushi ba'zan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

12. **Mm harfi** *moy, muborak, tomon, ilhom* kabi so'zlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

13. Dd harfi:

1) *dala, odat, bunyod, modda, jiddiy* kabi so'zlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *odob, savod, marvarid; zavod, pud, sud; badqovoq, badxo'r* kabi so'zlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.

14. **Tt harfi** *tong, tun; butun, o'tin, o't, kut* kabi so'zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

15. Zz harfi:

1) *zar, zamon; toza, o'zbek; yoz, g'oz* kabi so'zlarda til oldi jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *iztirob, izquvar, bo'zchi, tuzsiz* kabi so'zlarda jarangsiz undoshdan oldin **s** aytilsa ham, **z** yoziladi.

16. **Ss harfi** *sogʻ, somon, oson, asos, olmos* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

17. **Sh sh harflar birikmasi** *shahar, shisha, shodlik; ishq, pishiq; bosh, tosh* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

S h harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga tutuq (‘) belgisi qoʻyiladi: *Isʻhoq, asʻhob* kabi.

18. **Jj harfi:**

1) *jon, jahon, jiyda, tijorat; rivoj, vaj* kabi soʻzlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) *jurnal, projektor; gijda, ajdar, tiraj* kabi oʻzlashma soʻzlarda til oldi jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

19. **Ch ch harflar birikmasi** *choy, chevar, chiroyli, chaman; achchiq, uchun, bichiqchi; kuch, kech* kabi soʻzlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

20. **Rr harfi** *rahmat, rohat, orom, doira, bor, diyor* kabi soʻzlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

21. **Ll harfi** *lola, loyiq, laʼl; iloj, mahal* kabi soʻzlarda sirgʻaluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

22. **Nn harfi:**

1) *non, nomus; ona, tana; bilan, tomon* kabi soʻzlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *shanba, yonbosh, jonbozlik; yonma-yon, koʻrinmaslik* kabi soʻzlarda **n** tovushi baʼzan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

23. **Gg harfi** *gul, goʻzal; ega, gugurt; teg, eg* kabi soʻzlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

24. **Kk harfi** *koʻl, koʻylak; uka, moki; tok, bilak* kabi soʻzlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

25. **Yy harfi** *yoʻl, yigit, yetti, yaxshi, yoz, yulduz; tuya, dunyo, tayyor; soy, tuy* kabi soʻzlarda til oʻrta sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

26. **Ng ng harflar birikmasi** *yangi, koʻngil, dengiz, singil, keling, bordingiz; tong, ming, teng* kabi soʻzlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

27. **Qq harfi** *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

28. **Gʻgʻ harfi** *gʻoz, bagʻir, togʻ* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangli sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

29. **Xx harfi** *xabar, xoʻroz, xohish, xushnud, baxt, axborot, mix* kabi soʻzlarda chuqur til orqa jarangsiz sirgʻaluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

30. **Hh harfi** *hosil, hamma, bahor; isloh, nikoh* kabi soʻzlarda jarangsiz sirgʻaluvchi boʻgʻiz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1) *baland, Samarqand, poyezd; doʻst, artist, gʻisht* kabi soʻzlarda **d, t** tovushi baʼzan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi oʻzlashma soʻzlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday soʻzlarga xuddi shu tovush bilan

boshlanadigan qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: metall+lar=metallar, kilogramm+mi=kilogrammi kabi.

32. ' – **tutuq belgisi:**

1) *a'lo, ba'zan, ma'yus, ta'zim; ra'y, ta'b; e'lon, e'tibor, e'tiqod, me'mor, ne'mat, she'r, fe'l; Nu'mon, shu'la* kabi o'zlashma so'zlarda unli keyin shu unli tovushning cho'ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi; mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar kabi so'zlarda **o'** unlisi cho'ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi;

2) **in'om, san'at, qat'iy, mas'ul** kabi o'zlashma so'zlarda unli oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo'yiladi.

ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

33. Qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z oxiridagi unli o'zgaradi:

1) **a** unlisi bilan tugagan fe'llarga **-v, -q, -qi** qo'shimchasi qo'shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: *sayla-saylov, sina-sinov, aya-ayovsiz; so'ra-so'roq, bo'ya-bo'yoq; o'yna-o'ynoqi, sayra-sayroqi* kabi;

2) **i** unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'llarga **-v, -q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi – o'quvchi, qazi – qazuvchi, sovi - sovuq* kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe'llarga **-q** qo'shimchasi qo'shilganda bu unli **i** aytiladi va shunday yoziladi: *og'ri-og'riq, qavi-qaviq* kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga **-uv** qo'shiladi: *ol – oluv, yoz – yozuv* kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida **u** unlisi bor fe'lga **-uq** qo'shiladi: *uz – uzuq, yut – yutuq* kabi.

Lekin *uyushiq, burushiq, uchuriq* (shuningdek, *bulduriq*) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida **i** aytiladi va shunday yoziladi.

34. **k, q** undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, *bek, yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k** undoshi **g** undoshiga, **q** undoshi **g'** undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak – tilaging, yurak–yuragim, kubok–kubogi, bek-begi; tayoq–tayog'i, qo'shiq–qo'shig'i, yaxshiroq–yaxshirog'i, yo'q–yo'g'i* kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda **k, q** tovushi aslida aytiladi va yoziladi: *ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk – erki, huquq – huquqim, ravnaq – ravnaqi, yuq – yuqi* kabi.

35. Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) *o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil* kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *qayir, ayir* kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi **-il** qo'shimchasi qo'shilganda, *ikki, olti, yetti* so'zlariga **-ov, -ala** qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o'rin–o'rnim, qorin–qorni, burun– burning, o'gil–o'g'ling, ko'ngil–ko'ngli, yarim–yarmi; qayir–qayril, ulug'–ulg'ay, sariq–sarg'ay, ikki–ikkov, ikki–ikkala, yetti–yettov* kabi;

2) **u, bu, shu, o'sha** olmoshlariga **-da, -dan, -day, -dagi, -da, -gach, -cha** qo'shimchalari qo'shilganda **n** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda, bunday, shunda, o'shancha* kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: *buningiz, o'shanisi* kabi;

3) **o, o', u, e** unilari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si** (yoki-**lari**) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: *bobom, bobong, bobosi; bobomiz, bobongiz, bobosi* (yoki *bobolari*); *orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;

b) *parvo, obro', mavqe, mavzu, avzo* so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir **y** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obro'yim, obro'ying; obro'yimiz, obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo, avzo, obro', mavqe* so'zlariga **-yi** shaklida, *xudo, mavzu* so'zlariga esa **-si** shaklida qo'shiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi **y** undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda **-si** qo'shiladi: *dohiysi* kabi);

4) **men, sen** olmoshlariga **-ni, -ning, -niki** qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi **n** tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

36. Quyidagi qo'shimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham, bir xil yoziladi:

1) **-bon, -boz** qo'shimchalari ba'zan **-von, -voz** aytilsa ham, hamma vaqt **-bon, -boz** yoziladi: *darvozabon, masxaraboz* kabi.

Lekin **-vachcha** qo'shimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) o'rin kelishigi va chiqish kelishigi qo'shimchasining, o'tgan zamon yasovchisi va III shaxs ko'rsatkichi **-di** qo'shimchasining boshidagi undosh ba'zan **t** aytilsa ham, hamma vaqt **d** yoziladi: *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi.

37. Quyidagi qo'shimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid so'zlardan fe'l yasovchi **-ilia** (*chirilla, taqilla*) qo'shimchasi so'z tarkibida **v** yoki **u** tovushi bo'lganda **-ulla** aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi **-dir** qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek, **z** undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo'shimcha **-tir** aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-ga**, chegara bildiruvchi **-gacha**, ravishdosh shaklini yasovchi **-gach, -guncha, -gani, -gudek**, sifatdosh shaklini yasovchi **-gan**, buyruq maylining II shaxs ko'rsatkichi **-gin**, shuningdek, **-gina** qo'shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) **k** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **k** aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo'lakkacha, ko'nikkach, zerikkuncha, to'kkani, kechikkudek, bukkani, ekkini, kichikkina* kabi;

b) **q** undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda bu qoʻshimchalarning bosh tovushi **q** aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qoʻrqqudek, achchiqqina* kabi;

d) qolgan barcha hollarda, soʻz qanday tovush bilan tugashidan va bu qoʻshimchalarning bosh tovushi **k** yoki **q** aytilishidan qatʼi nazar, **g** yoziladi: *bargga, pedagogga, bugʻga, sogʻga, ogʻgan, sigʻguncha* kabi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. *Qaysi soʻzlarda a unlisi o aytilsa ham, asl holicha yoziladi?*
2. *Yonma-yon keladigan unlilar imlosi haqida soʻzlang.*
3. *Aytilishi bilan yozilishi farq qiladigan undoshlar imlosiga oid qoidalarini ayting.*
4. *Yonma-yon keladigan undoshlar qanday yoziladi?*
5. *Qoʻshimcha qoʻshilishi bilan soʻz oxiridagi unli tovushning oʻzgarishiga oid qoidalarini ayting.*
6. *Soʻzga qaysi qoʻshimchalar qoʻshilganda soʻz tarkibidagi tovush tushadi?*
7. *Qoʻshimcha qoʻshilishi bilan soʻz ohiridagi tovushning oʻzgarishi qaysi undoshlarga xos?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Oʻzbek tilining imlo qoidalari. 1995 y.*
2. *Raxmatullaev SH. Oʻzbek tilining yangi alifbosi va imlosi. 1995 y.*
3. *Raxmatullaev SH. Orfografiya qoidalari – savodhonligimiz asosi. Toshkent. 1980 y.*
4. *Jamolhonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent. 2005 y.*

Mavzu : OʻZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI (3,4,5 – boblar)

Reja :

1. *Qoʻshib yozish.*
2. *Chiziqcha bilan yozish.*
3. *Ajratib yozish.*

TAYANCH TUSHUNCHALAR

- | | |
|-----------------------------------|-------------------------------|
| 1. <i>Qoʻshib yozish.</i> | 9. <i>Takror soʻz.</i> |
| 2. <i>Ajratib yozish.</i> | 10. <i>Koʻmakchi feʼl.</i> |
| 3. <i>Chiziqcha bilan yozish.</i> | 11. <i>Kuchaytirma sifat.</i> |
| 4. <i>Qoʻshma ot.</i> | 12. <i>Izofali birikma.</i> |

5. *Qo'shma sifat.*
6. *Qo'shma fe'l.*
7. *Murakkab son.*
8. *Juft son.*

13. *Yuklamalar.*
14. *Tartib son.*
15. *Arab raqami.*
16. *Rim raqami.*

QO'SHIB YOZISH

38. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* kabi.

39. **-(a) r** (inkori **-mas**) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

40. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: *pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la)* kabi.

41. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.

42. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

43. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.

44. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

45. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochildasturxon* kabi.

46. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *mingboshi, so'zboshi, olmaoqi* kabi.

47. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod* kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, O'rta Chirchiq* kabi.

48. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'ma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti* kabi.

49. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi: *SamDU, ToshDUNing* kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: *O'zXDPMK (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi)* kabi.

50. Bir tovush ikki yoki undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: yo'o'q , nima, himm, uff kabi.

CHIZIQCHA BILAN YOZISH

51. Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta (10-15ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, ozmoz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab) , bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan* kabi.

Eslatma:

1) juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: baxt-saodatli, xayr-xo'shlashmoq kabi;

2) juft so'z qismlari orasida **-u (-yu)** bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi: do'st-u dushman (do'st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz) kabi;

3) yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qo'yasan, uxlabman-qolibman kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to'ppa-to'g'ri, bab-barobar kabi so'z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq so'zi qo'shib yoziladi).

53. So'zning **-ma, ba-** qo'shimchalari yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: ko'chama-ko'cha, uyma-uy, rang-barang, dam-badam kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: ro'baro', darbadar kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: unter-ofitser, kilovatt-soat kabi.

55. **-chi, -a (-ya) , -ku, -u (-yu), -da, -e; -ey (-yey)** yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, boraylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo'y-e, yashang-e, o'g'lim-ey, keldi-yey kabi. Ammo **-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina)** yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: keliboq, o'ziyoq, ko'rganov, ko'rdiyov, mengina, qo'shiqqina kabi.

56. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi** qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi: 7- sinf, 5- "A" sinfi, 3-, 7-, 8- sinf o'quvchilari, 60- yillar, 1991- yilning 1-sentabri kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X sinf kabi.

AJRATIB YOZISH

57. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

58. Ko‘makchi fe‘l va to‘liqsiz fe‘l mustaqil fe‘ldan ajratib yoziladi: aytib ber, olib ko‘r, so‘rab qo‘y, ko‘ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi. Lekin mustaqil fe‘l bilan yordamchi fe‘l orasida tovush o‘zgarishi bo‘lsa, bunday qismlar qo‘shib yoziladi: aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

59. Ko‘makchilar ajratib yoziladi: shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo‘yi kabi. Lekin **bilan** ko‘makchisining **-la** shakli, **uchun** ko‘makchisining **-chun** shakli chiziqli bilan yoziladi: sen-la, sen-chun kabi.

60. **Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o‘sha** so‘zlari o‘zidan keyingi yoki oldingi so‘zdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o‘sha yoqqa kabi. Lekin birpas, biroz, birato‘la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so‘zlari qo‘shib yoziladi:

Shuningdek, **qay** so‘zi **yoq, yer** so‘zlari bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu so‘zlar qo‘shib yoziladi: qayoqqa, qayerda kabi.

61. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan **to‘q, jiqqa, tim, liq, lang, och** kabi so‘zlar ajratib yoziladi: to‘q qizil, jiqqa ho‘l, tim qora, liq to‘la, lang ochiq, och sariq kabi.

62. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: o‘n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi kabi.

63. Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalar ajratib yoziladi.

64. Belgining ortiqlik darajasini bildiruvchi ko‘pdan ko‘p, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi.

65. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so‘zlarga **i** shaklida, unli bilan tigagan so‘zlarga **yi** shaklida qo‘shiladi: dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so‘zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so‘zlar qo‘shib yoziladi: gulbeor (guli beor), dardisar kabi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. *Qanday qo‘shma ot va qo‘shma sifat qismlari qo‘shib yoziladi?*
2. *Ajratib yoziladigan so‘zlarning imlosi haqida so‘zlag.*
3. *Qo‘shma jo‘y nomlarining yozilishiga oid qanday qoidalarini bilasiz?*
4. *Juft va takroriy so‘zlar qanday yoziladi?*
5. *Yuklamalarning yozilishiga doir qoidalar haqida so‘zlang.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *O‘zbek tilining imlo qoidalarini. 1995 y.*
2. *Raxmatullaev SH. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. 1995 y.*
3. *Raxmatullaev SH. Orfografiya qoidalarini – savodxonligimiz asosi. Toshkent. 1980 y.*
4. *Jamolhonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 2005 y.*

Mavzu : O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI (6,7 – boblar)

Reja :

1. Bosh harflar imlosi
2. Ko'chirish qoidalar.
3. Imlo qoidalariga sharhlar.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. Kishi ismi.
2. Ota ismi.
3. Familiya.
4. *Tahalluslar; jo'y nomlari; yulduzlar va sayyoralar nomlari; yu xayvonlari nomlari; madaniy-maishiy ob'ektlar nomlari; badiiy asar nomlari; tarixiy voqea.*
5. *Bayram nomlari; bo'g'in ko'chirilishi.*
6. *O'zlashma so'zlarda bo'g'in ko'chirilishi.*

BOSH HARFLAR IMLOSI

66. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Dilbar, O'rinova Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o'g'li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So'fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig'ichxon, Salomjon Alikov* kabi.

67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo'l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig'atoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov), Qoratog', Pomir (tog'lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar)* kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum* kabi.

68. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi relyef nomi)* kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.*

69. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: *"Tong" (mehmonxona),*

"Saodat" (firma), "Navroz" (xayriya jamg'armasi), „Kamalak" (matbaa birlashmasi), "G'uncha" (bog'cha), "Botanika" (sanatoriy), „Paxtakor" (stadion), "Qutlug' qon" (roman), "Dilorom" (opera), "Tanovar" (kuy), "Ozodlik" (haykal), "Jasorat" (yodgorlik), "Sino" (sovutgich) kabi.

70. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navroʻz bayrami* kabi.

71. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Oʻzbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning oʻrinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, Oʻzbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Sogʻliqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qoʻmitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi.

72. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *"Oʻzbekiston Qahramoni" (unvon), "Oltin Yulduz" (medal)*. Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *"Sogʻlom avlod uchun" (orden), "Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi" (faxriy unvon), "Matbaa aʼlochisi" (nishon)* kabi.

73. Gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan boshlanadi: *Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim.* (O. Yoqubov)

Eslatma:

1) koʻchirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi soʻzi (agar u atoqli ot boʻlmasa) kichik harf bilan yoziladi: *„Bu men ", - qoʻrqibgina javob berdi koʻlaga* (O. Yoqubov);

2) xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qoʻyiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishni koʻrishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

- mazkur ishni koʻrib chiqish uning huquq doirasiga kirish-kirmasligini;

- maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar toʻgʻri tuzilgan-tuzilmaganligini ... hal qiladi;

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qoʻyib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi oʻzbek adabiy tilining lugʻat boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) *umumturkiy soʻzlar*, 2) *oʻzbekcha soʻzlar*, 3) *tojik tilidan kirgan soʻzlar*, 4) *arab tilidan kirgan soʻzlar*, 5) *rus tilidan kirgan soʻzlar* ("Oʻzbek tili" darsligidan).

74. Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot boʻlmagan baʼzi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSH* (Amerika Qoʻshma Shtatlari), *BMT* (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), *AES* (atom elektr

stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: *ToshDTU* (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

KO'CHIRISH QOIDALARI

75. Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: *to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-ta-kor, paxtakor* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: *va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om* kabi.

76. So'zning bosh yoki oxirgi bo'g'ini bir harfdan iborat bo'lsa, ular quyidagicha ko'chiriladi:

1) so'z boshidagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan* kabi;

2) so'z oxiridagi bir harfdan iborat bo'g'in yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi: *mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa* kabi.

77. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *diagramma, mono-grafiya* kabi.

2) uch undosh yonma-yon kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik* kabi.

78. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi (sh, ch, ng) birgalikda ko'chiriladi: *pe-shayvon, pe-shona, mai-shat, pi-choq, bi-chiq-chi, si-ngil, de-ngiz* kabi.

79. Bosh harflardan yoki bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko'p xonali raqamlar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: *AQSH, BMT, ToshDU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.

80. Harfdan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: *5-„A” sinf, V „B” guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm* kabi.

81. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: *“Navro'z-92” (festival), “O'qituvchi-91” (ko'rik tanlov), „Andijon – 9”, “Termiz-16” (g'o'za navlari), „Boing-767” (samolyot), Foton-774” (televizor)* kabi.

82. A. J. Jabborov, A. D. Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, **v.b.** (va boshqalar), **sh.k.** (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR

1. Shaxs nomlari qanday yoziladi?
2. Jo'y nomlariga (toponimlar) qanday ob'ektlar kiradi? Ularning yozilishiga misollar keltiring.

3. *Mamlakatlar va mansablari tarkibidagi xar bir so'z qanday yoziladi, ularga misollar ayting.*
4. *Qanday tarixiy voqea va bayram nomlarini bilasiz? Bu nomlarning yozilishi xaqidagi qoidani bayon qiling.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *O'zbek tilining imlo qoidalari. 1995 y.*
2. *Raxmatullaev SH. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. 1995 y.*
3. *Raxmatullaev SH. Orfografiya qoidalari – savodhonligimiz asosi. Toshkent. 1980 y.*
4. *Jamolhonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2005 y.*

LEKSIKOLOGIYA – TILNING LUG'AT BOYLIGINI O'RGANUVCHI SOHA

Tayanch tushunchalar: *leksikologiya, leksika, lug'at tarkibi, lug'aviy birlik, leksik birlik, frazeologik birlik, umumiy leksikologiya, xususiy leksikologiya, qiyosiy leksikologiya, tarixiy leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, onomasiologiya, onomastika.*

R e J A

1. *Tilning lug'at tarkibi haqida ma'lumot.*
2. *Leksikologiyaning tarmoqlari va qismlari.*
3. *Leksikologiyaning o'rganish ob'ekti, maqsad va vazifalari.*

Leksikologiya grekcha lekhikos – so'z va logos – ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, tilshunoslikning tilning lug'at tarkibini, so'z boyligini o'rganuvchi, tadqiq etuvchi alohida bir sohasidir.

Tilning lug'at tarkibi muayyan tilda mavjud bo'lgan so'z va iboralar majmuidan iboratdir. So'z va iboralar birgalikda tilning lug'aviy birliklarini tashkil etadi. So'z – leksik birlik, ibora esa frazeologik birlik deb yuritiladi.

O'zbek tili lug'at tarkibi keng ma'noda adabiy tildagi so'zlar bilan bir qatorda shevalar hamda kasb-hunarga, shuningdek, ma'lum ijtimoiy guruhga oid so'zlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Kishi ismlari, laqablar, taxalluslar (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), yulduz va sayyoralar nomlari (astroponimlar), hayvonlarga berilgan maxsus nomlar (zoonimlar) kabi atoqli otlar ham tilning lug'at tarkibiga kiradi. Lug'at tarkibi tilning boyligini o'zida aks ettiradi. Qaysi til so'zga boy bo'lsa, o'sha til shunchalik taraqqiy etgan hisoblanadi.

Tilning lug'at tarkibi doimo o'sishda, o'zgarishda bo'ladi. Bunda o'tmishda ishlatilgan bir qancha so'zlarning eskirib iste'moldan chiqishi, avvallari faol

qo'llangan so'zlarning nafaol qatlamga o'tishi, ilgarilari kam ishlatilgan so'zlarning faollashishi, so'z ma'nosining kengayishi va torayishi, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishi kabi holatlar kuzatiladi. Jamiyat taraqqiy etib borishi natijasida tilning lug'at tarkibi ikki omil: ichki va tashqi manbalar asosida boyib boradi. Ichki omil deyilganda o'zbek tilining o'z imkoniyatlari, qonun-qoidalar asosida yangi so'zlar hosil qilinishi, yasalishi hamda sheva va lahjalardan adabiy tilga so'z qabul qilinishi tushuniladi. Lug'at tarkibi tashqi manba – boshqa tillardan so'z o'zlashtirish orqali ham boyiydi.

Tilning lug'at tarkibi ma'nosida leksika atamasi ham qo'llaniladi. Darhaqiqat, leksika – tildagi so'zlarning yig'indisi, majmuidir. Leksika atamasi adabiy tilning lug'at tarkibi ma'nosida qo'llanishi bilan bir qatorda biror sheva yoki lahjaning, ma'lum bir kasb-hunar, sohaning lug'at tarkibini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Masalan, o'zbek shevalari leksikasi, o'g'uz lahjasi leksikasi.

Leksikologiyaning tarmoqlari va qismlari. Leksikologiyaning bir necha tarmoqlari bor: 1) umumiy leksikologiya, 2) xususiy leksikologiya, 3) qiyosiy leksikologiya, 4) tarixiy leksikologiya, 5) hozirgi leksikologiya.

Umumiy leksikologiya barcha tillar leksikasiga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar, hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Xususiy leksikologiyada muayyan bir tilning so'z boyligi o'rganiladi. Qiyosiy leksikologiyada bir necha qarindosh tillar leksikasi bir-biriga chog'ishtirish, qiyoslash asosida tekshiriladi, ular o'rtasidagi bir xillik va tafovutlar ochib beriladi. Tarixiy leksikologiyada aniq bir tilning o'tmishdagi, ma'lum bir davrdagi leksikasi tadqiq etiladi. Hozirgi leksikologiya biror til leksikasining hozirgi davrdagi holatini o'rganadi. Leksikologiyaning qayd etilgan bu tarmoqlari o'zaro mustahkam bog'langandir. Ular bir-birining materialiga tayanib ish ko'radi.

Leksikologiya bir necha qismlardan iborat: 1) semasiologiya, 2) etimologiya, 3) onomasiologiya, 4) onomastika.

Semasiologiyada so'z va uning ma'nosi, leksik ma'no tiplari, semema va uning tarkibi, leksik ma'no taraqqiyoti, leksik ma'noning miqdoriga ko'ra tiplari, so'zlarning ma'noviy munosabatiga ko'ra turlari, so'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari o'rganiladi. Etimologiya so'zlarning kelib chiqishi masalalari bilan shug'ullanadi. Onomasiologiya narsa va hodisalarga nom berish jarayonini o'rganadi. Onomastika atoqli otlarni o'rganuvchi, tadqiq etuvchi alohida bir sohadir. Uning antroponimika (kishi ismlarini ilmiy jihatdan o'rganadi), toponimika (joy nomlarini o'rganadi), etnonimika (urug', qabila, qavm, millat nomlarini o'rganadi), kosmonimika (osmon jismlari – yulduzlar, sayyoralar, yulduzlar turkumlari nomlarini o'rganadi), zoonimika (qush va hayvonlar uchun maxsus qo'yilgan laqab-nomlarni o'rganadi), ktematonimika (ma'naviy, madaniyat obidalarining, ilm-fan, texnikaga hamda badiiy adabiyotga oid asarlarning nomlarini o'rganadi) singari tarmoqlari bor.

Leksikologiyaning o'rganish ob'ekti, maqsad va vazifalari.

Leksikologiyaning ob'ekti tilning lug'at boyligidir. Bu boylik tilshunoslikda leksika deb ataladi, u muayyan tildagi barcha so'zlarni va shu so'zlar bog'lanishidan tarkib topgan ko'chma manoli qurilmalarni (iboralarni) o'z ichiga oladi.

Leksikologiyaning predmeti – lugʻat boyligining tuzilishi va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa satxlari bilan aloqasini tadqiq qilishdir.

Leksikologiyaning vazifalari: a) biror til lugʻat boʻyligidagi eskirish va yangilanish jarayolarini, bu jarayonlarda lisoniy va nolisoniy omillarning ishtirokini oʻrganish; b) lugʻaviy birliklarning vazifaviy – maʼnoviy tavsifini berish soʻzlarning maʼno guruhlarini aniqlash, yangi va zamonaviy qatlamlarni tadqiq etish; s) talabalarni leksikaga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, leksik tahlil namunalari oʻrgatish.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. *Leksikologiya deb nimaga aytiladi?*
2. *Tilning lugʻat tarkibi deganda nimani tushunasiz?*
3. *Tilning lugʻat tarkibi qanday manbalar asosida boyiydi?*
4. *Leksika nima? Leksika atamasining qoʻllanilishiga izoh bering.*
5. *Leksikologiyaning qanday tarmoqlarini bilasiz?*
6. *Leksikologiya necha qismdan iborat?*
7. *Semasiologiyada qanday masalalar oʻrganiladi?*
8. *Etimologiya nima?*
9. *Onomasiologiya nimani oʻrgatadi?*
10. *Leksikologiyaning asosiy maqsad va vazifalariga nimalar kiradi? Bu haqda bilganlaringizni soʻzlab bering.*

ADABIYOTLAR

1. *Oʻzbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 1981, 4-10-betlar.*
2. *SHoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1980, 103-104-betlar.*
3. *Mirtojiyev M. Oʻzbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. Toshkent, 2000, 3-4-betlar.*
4. *Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992, 90-92-betlar.*
5. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev SH. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1992, 49-53-betlar.*
6. *Qilichev E. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (maʼruza matnlari). Buxoro, 2001, 58-59-betlar.*
7. *Hozirgi oʻzbek adabiy tili. I jild. Toshkent, 1966, 94-95-betlar.*
8. *Abdullaev F. Til qanday rivojlanadi? Toshkent, 1972.*
9. *Muhammadjonova G. Oʻzbek tili leksikasi taraqqiyotining baʼzi masalalari. Toshkent, 1982.*

SO'ZNING SEMANTIK TARKIBI. BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR

Tayanch tushunchalar: *leksik ma'no, leksik ma'no va tushuncha, bosh ma'no va yasama ma'no, to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no, nominativ ma'no va majoziy ma'no, erkin ma'no va bog'li ma'no, etimologik leksik ma'no, qo'shimcha ottenka, hissiy bo'yoq, uslubiy belgi.*

R e J A

1. *So'zning semantik tarkibi haqida umumiy ma'lumot.*
2. *Leksik ma'no turlari.*
3. *Qo'shimcha ottenka. So'zlarda hissiy bo'yoq va uslubiy belgining ifodalanishi.*
4. *Bir ma'noli va kop ma'noli so'zlar*

So'zning semantik tarkibi shu so'zga xos bo'lgan ikki hodisani: leksik ma'no va qo'shimcha ottenkani o'z ichiga oladi. So'zning semantik tarkibiga aloqador bo'lgan mana shu hodisalarni o'rganuvchi soha **semasiologiya** deyiladi.

Ma'lumki, tildagi barcha so'zlar muayyan bir ma'noga ega bo'ladi. Lekin ular ob'ektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, harakat kabilarni bildirishi (tushuncha ifodalashi) va bunday xususiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Xuddi mana shu nuqtai nazardan so'zlar ikki guruhga: 1) tushuncha ifodalaydigan so'zlar va 2) tushuncha ifodalamaydigan so'zlarga bo'linadi. Tushuncha ifodalash – faqat mustaqil so'zlarga (olmosh bundan mustasno) xos xususiyatdir. Masalan, paxta, suv, kitob, oq, qizil, tekis, tez, sekin, o'ylamoq, yugurmoq, ushlamoq so'zlari ma'lum narsa, belgi, harakatni bildiradi, shu narsa, belgi, harakat haqidagi tushunchani ifodalaydi. Bu xususiyat shu so'zlarning ma'nosi hisoblanadi.

Mustaqil so'z turkumlaridan boshqa turkumlarga oid so'zlar, chunonchi, yordamchi so'zlar (bilan, uchun, va, hamda, agar, hatto, basharti kabilar), undovlar (eh, ehe, oh, voh, uf, ey, voy singarilar), taqlid so'zlar (taq, gup, ship, lip-lip, yilt-yilt, dup-dup, duk-duk va boshqalar), modal so'zlar (albatta, darvoqe, ehtimol, shubhasiz, darhaqiqat kabilar) tushuncha ifodalamaydi. CHunki bu so'zlar ob'ektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni atamaydi. SHu bois ularda tushuncha ifodalash xususiyati yo'q.

Demak, aytilganlardan anglashiladiki, faqat tushuncha ifodalaydigan so'zlargina leksik ma'noga ega bo'ladi. Tildagi so'zlarning asosiy qismini ana shu tipdagi so'zlar tashkil etadi.

Leksik ma'no va uning turlari. So'zning ob'ektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat va shu kabilar haqida ma'lumot beruvchi mazmuni leksik ma'no deyiladi. Masalan, olma, o'rik, tosh, kitob, daftar, qo'l, ruchka, qalam so'zlari predmet-narsalarning ma'lum bir turini; sho'r, achchiq, nordon, katta, kichik, chuqur so'zlari ma'lum bir belgini; urmoq, chopmoq, ushlamoq, ishlamoq, o'ynamoq, sakramoq so'zlari ma'lum bir harakatni; uch, besh, o'n, yigirma, ellik, yuz, ming so'zlari

ma'lum miqdorni bildiradi, shular haqida ma'lumot beradi. Bular mazkur so'zlarning leksik ma'nosi hisoblanadi.

Leksik ma'noli so'zlar narsa, belgi, harakat kabilarning aynan o'zini emas, balki ular haqidagi tushunchani ifodalaydi. Tushuncha esa bu ob'ektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, harakatning kishi ongidagi umumiy in'ikosidir. Tushuncha bir turdagi narsa-hodisalarga xos bo'lgan belgilarni umumlashtiradi. Masalan, daraxt, tog', tosh haqidagi tushuncha barcha tog', tosh va daraxtlarga xos umumiy belgilarni birlashtiradi. Darhaqiqat, borliqda daraxtning turi juda ko'p, uning miqdori behisob. Daraxt so'zi shulardan aniq bittasini atamaydi, balki shu predmet haqidagi umumiy tushunchani ifodalaydi.

Leksik ma'no va tushuncha o'zaro uzviy bog'liqdir. Har ikkisi so'zning semantik tarkibidagi asosiy hodisalar sanaladi. Ammo leksik ma'no va tushuncha teng hodisalar emas. Leksik ma'no tilga oid hodisa, tushuncha esa tafakkurga xos hodisadir.

Leksik ma'noning bir qancha turlari bor. Bular lingvistik adabiyotlarda bosh ma'no va yasama (yoki hosila) ma'no, to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no, nominativ (nomlovchi) ma'no va majoziy ma'no, erkin ma'no va bog'li ma'no, asos ma'no va yasama ma'no, genetik ma'no va hosila ma'no, o'zak ma'no va yasama ma'no, asos ma'no va tobe ma'no, etimologik ma'no singari tiplarga ajratilib talqin etiladi. Bu leksik ma'noga turlicha, har xil nuqtai nazardan yondashilganligini ko'rsatadi.

Bosh ma'no va yasama (hosila) ma'no. So'zning birlamchi, dastlabki, asosiy ma'nosi bosh ma'no deyiladi. Boshqacha qilib aytganda u yoki bu leksik ma'noning vujudga kelishi, o'sib chiqishi uchun asos bo'ladigan ma'no bosh ma'nodir. Bosh ma'no taraqqiyoti asosida hosil bo'lgan ma'no yasama ma'no deb yuritiladi. Masalan, **ochiq** suzsining bosh ma'nosi "berklanmagan" demakdir: ochiq deraza, ochiq darvoza. Eshik va darichalar ochiq bo'lsam ham, uyda birov ko'rinmadi (A.Qodiriy). Ochiq suzsining mana shu bosh ma'nosi ta'sirida yuzaga kelgan: 1) "aniq, ravshan, yashirmay" (ochiq bajarmoq, ochiq aytmoq, ochiq so'zlamok. Elmurol ko'nglidagini **ochiq** aytib qo'ya qoldi – P.Tursun); 2) "xushfe'l, xushmuomala" (ochiq qiz, ochiq odam. U ichi kirsiz, serkulgi, **ochiqqina** bir yigit edi – A.Qodiriy) ma'nolari yasama (hosila) ma'nolardir.

To'g'ri ma'no va ko'chma ma'no. Leksik ma'nolarning bu ikki turi yuqorida qayd etilgan bosh ma'no va yasama ma'nolarga o'xshash. Darhaqiqat, suzsining bosh ma'nosi odatda **to'g'ri ma'no** deb, yasama ma'no esa **ko'chgan ma'no** deb qaraladi. Masalan **ko'z** so'zining bosh ma'nosi uning odam a'zolaridan birining nomini – ko'rish organini ifoda etishidir. Bu ayni vaqtda to'g'ri ma'no hamdir (Bobomning **ko'zi** hali yaxshi ko'radi). Ko'z suzsining **derazaning ko'zi, buloqning ko'zi, yog'ochning ko'zi, uzukning ko'zi, xurjunning ko'zi** birikmalaridagi ma'nolari yasama ma'nolar, shuning bilan bir qatorda ko'chma ma'nolardir. SHuningdek, **burun, quloq, tish, og'iz** suzlari **odamning burni, odamning qulog'i, odamning tishi, odamning og'zi** bog'lanishlarida bosh va to'g'ri ma'noda, **choynakning burni, qozonning qulog'i, arraning tishi, g'orning og'zi** birikmalarida esa yasama va ko'chma ma'noda ishlatilgan.

Nominativ (nomlovchi) ma'no va majoziy ma'no. Ob'ektiv borliqdagi bevosita tushuncha bilan bog'lanuvchi narsa – hodisa, belgi, harakatni ifodalovchi,

uning nomi bo'lib xizmat qiluvchi leksik ma'no nominativ (nomlovchi) ma'no deyiladi. Nominativ ma'no voqelik bilan bevosita bog'lanadi. Masalan, **gul, til, kalit, qizarmoq, terlamoq** suzlarining bosh ma'nolari nominativ ma'nolardir. Majoziy ma'no narsa, belgi, harakat bilan bevosita bog'lanmaydi. U nominativ ma'no orqali ularga aloqador sanaladi. CHunonchi, **gul** suzsining nominativ ma'nosi o'simlik turlaridan birining nomini anglatib kelishidir. SHu suz **yigitlarning guli** birikmasida "**noyob**", "**sara**" ma'nosini anglatadi. Bu – majoziy ma'no sanaladi. Gul – o'simlik nomi sifatida bevosita voqelik bilan bog'langan. Majoziy ma'noda esa voqelik bilan suzning nominativ ma'nosi orqali bog'lanib kelgan. **Til** suzsi **odamning tili** birikmasida "og'izda joylashgan va ta'm – maza bilishga xizmat qiladigan a'zo" ma'nosini – nominativ ma'noni anglatadi, **dehqonchilikning tilini bilmoq, mashinaning tilini bilmoq** bog'lanishlarida "**nozik tomon**", "**sir**" ma'nosini – majoziy ma'noni bildiradi.

Erkin ma'no va bog'li ma'no. Nutqda reallashish holatiga ko'ra leksik ma'no ikki turga: erkin ma'no va bog'li ma'noga bo'linadi. Professor A.Hojievning ta'kidlashicha, erkin ma'no narsa, belgi, harakat bilan bevosita bog'lanadigan ma'no bo'lib, uning reallashuvi ma'lum kontekstga, so'z qurshoviga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, **o'yin** so'zining **raqs** ma'nosi, **chekmoq** so'zining **ichga tortmoq** ma'nosi, **yugurmoq** fe'lining **chopmoq** ma'nosi, **chap** so'zining **o'ngning aksi** ma'nosi **erkin ma'no** hisoblanadi. Bu ma'nolar hech qanday qo'shimcha vositaga bog'liq bo'lmagan holda reallasha oladi.

Bog'li ma'no ma'lum so'z yoki so'zlar qurshovidagina reallashadi. Bunday ma'noning yuzaga chiqishi uchun ma'lum so'z shu bog'liq ma'noni reallashtiradigan so'z yoki so'zlar bilangina qo'llanadi. Masalan, **chekmoq** fe'li "boshidan o'tkazmoq" ma'nosini anglatishi uchun **g'am, alam, tashvish, ozor** so'zlari bilan qo'llanishi lozim. Bu so'zlarsiz chekmoq fe'lining yuqoridagi ma'nosi nutqda namoyon bo'lmaydi. SHu bois ushbu suzning ma'nosi bog'li ma'no sanaladi.

Qo'shimcha ottenka. So'zning semantik tarkibida leksik ma'nodan tashqari qo'shimcha ottenka ham mavjud bo'ladi. Qo'shimcha ottenka deyilganda hissiy bo'yoq va uslubiy belgi tushuniladi. Hissiy buyoq leksik ma'noga qo'shimcha tarzda sub'ektning turli hissiy munosabatlarini (his-tuyg'ularini, kayfiyatini) ifodalaydi. Hissiy bo'yoq ikki xil: 1) ijobiy, 2) salbiy bo'lishi mumkin. CHunonchi, yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol suzlari leksik ma'no anglatishi jihatidan bir xil, hissiy bo'yoqqa ko'ra esa farqli. Bulardan aft, bashara, turq - salbiy hissiy bo'yoqni, chehra, jamol – ijobiy hissiy bo'yoqni anglatadi. Jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq suzlarida jilmaymoq sub'ektning ma'lum darajada ijobiy munosabatini, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq esa salbiy his-tuyg'uni ifodalaydi. Indamas, pismiqlik, ming'aymas sinonimik qatorida pismiqlik, ming'aymas so'zlari salbiy ottenka belgisiga ega. Novcha va naynov suzlarida naynov so'zi salbiy munosabatni bildiradi. Novcha so'zi esa hech qanday hissiy bo'yoqqa ega emas. Demak, so'zning semantik tarkibida hissiy bo'yoq bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

Uslubiy belgi so'zning biror nutq uslubiga xoslanganligini ko'rsatadi. Masalan, **ozod va hur, ovoz va nido** so'zlarida **hur** hamda **nido** suzlari badiiy uslubga xoslanganligi bilan ajralib turadi. Lolagun, ishvanoz, dilband, jilvakor, sanam, farah,

yovqur, gulgun, bashar, sarafroz, nigoron, tug'yon, yanglig', mohtob so'zlari ham badiiy uslubga xos suzlar hisoblanadi. CHiroyli va ketvorgan, pul va mullajiring, chidam va to'zim, ofarin, o'lmang, yashang so'zlari qatorida ketvorgan, mullajiring, to'zim, o'lmang, yashang suzlari oddiy so'zlashuv uslubiga xosdir. Uslubiy belgi semantik tarkibda albatta bo'lishi shart emas. Qayd etgan yuqoridagi misollarimizda chiroyli, pul, chidam, ofarin so'zlarining biror uslubga xoslik belgisi yo'q.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, so'zning semantik tarkibi leksik ma'no va qo'shimcha ottenkadan tashkil topadi. Leksik ma'no turli nuqtai nazardan bir necha tiplarga ajratilib o'rganiladi. So'z ma'nolarini chuqur o'rganish uning semantik qurilishini tasavvur qilish imkonini beradi.

Bir maonoli va ko'p maonoli so'zlar. So'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Bir ma'noli suzlar monosemiya, ko'p ma'noli suzlar polisemiya deb yuritiladi.

Faqat bitta leksik ma'noni ifodalovchi so'zlar **bir ma'noli suzlar (monosemiya)** deyiladi: shahar, qishloq, poytaxt, mahalla, vazir, askiya, din, jilg'a, zovur, kechuv, kitob, daftar, traktor kabi. Ko'pincha ilmiy atamalar bir ma'noli bo'ladi: tuyuq, ruboiy, peyzaj, misra, g'azal, masnaviy, qofiya (adabiyotshunoslikda), kelishik, metateza, urg'u, fonema, sifatdash, ravishdash, kesim, to'ldiruvchi (tilshunoslikda), oqsil, azot, vodorod, kaltsiy, xlor (ximiyada), kompas, meridian, masshtab, xarita, ekvator (geografiyada), maxraj, musbat, manfiy, surat, kub, sinus, kosinus, kvadrat (matematikada), jism, energiya, magnit, bug'lanish (fizikada) singari.

Ikki yoki undan ortiq ma'noni ifodalovchi suzlar **ko'p ma'noli suzlar (polisemiya)** deb ataladi. Ko'p ma'noli suzlar deyarli barcha so'z turkumlarida uchraydi. Ularga **er, ko'z, bosh, yo'l, dunyo, kuch** (otlar), **oq, qora, baland, past, katta, kichik, o'tkir** (sifatlar), **ko'tarmoq, o'chirmoq, bo'lmoq, olmoq, ajratmoq** (fe'llar) so'zlarini kiritish mumkin.

Polisemiya ikki yo'l bilan yuzaga keladi: **1. So'zning yangi ma'nolar kasb etishi natijasida. 2. Ko'p ma'noli so'zdan yoki ko'p ma'noli affiks vositasida so'z yasalishi natijasida.**

Birinchi yo'l – so'zning yangi ma'nolar kasb etishi asosiy va etakchi yo'l hisoblanadi. Bu yo'l vositasida tilimizda juda ko'plab polisemem suzlar hosil qilingan. SHu yo'l asosida yuzaga kelgan ko'p ma'noli so'zlarga **er, til, ko'z, gul, qalin, katta, o'chirmoq, termoq, ko'tarmoq, olmoq** kabi so'zlar misol bo'la oladi. Bu suzlar 4 tadan tortib 20 tagacha ma'no ifoda etadi. Misol tariqasida **qalin** so'zining quyidagi gaplardagi ma'nolarini ko'rsatish mumkin: **Qalin** ko'rpacha ustida savol – javobga quloq solib o'tirdi (M.Ismoiliy). Quyosh sekin-asta ko'tarilib, **qalin** shoxlar orasidan mo'ralay boshladi (I.Rahim). Jinchiroq ham ko'rinmaydi, uy ichi **qalin** tutun (Oybek). Bozor kuni bo'lganidan rastalarda odam **qalin** (Oybek). Nizomjonning eng **qalin** oshnasi Karimjon ham frontga ketdi (S.Ahmad). Misollarimizda qalin so'zi “serpaxta, issiq”, “bir-biriga yaqin, zich joylashgan”, “quyuq, zich”, “ko'p, mo'l”, “qadrdon, yaqin, jonajon” ma'nolarini ifodalamoqda. Qalin so'zining yuqoridagi ma'nolariga e'tibor berilsa, ular o'rtasida aloqa (bog'lanish) borligini yaqqol sezish mumkin. Bu shu ma'nolarning biri boshqasidan kelib chiqqanini ko'rsatadi.

Polisemem suzlarning hosil bo'lishida ikkinchi yo'lning ham alohida o'rni bor. Bunda ko'p ma'nolilik yasama so'zlar vositasida yuzaga keladi. Agar so'z (o'zak) ko'p ma'noli bo'lsa, undan yasalgan yasama so'zlar ham ko'p ma'noni ifoda qiladi.

Polisemem suz **baland** so'zidan **-la** qo'shimchasi orqali fe'l yasalganda, yasama so'z (balandlamoq) ham ko'p ma'noga ega bo'ladi: Ko'tarma ko'zga ko'rinib, suv **balandlab** bordi (I.Rahim). Hamsuhbatim gapini shivirlab boshlasa ham, bir zumda ovozi **balandlab** ketdi ("Mushtum"dan). Narx-navo ancha **balandlab** qoldi (So'zlashuvdan). Keltirilgan misollarda balandlamoq so'zi "yuqorilashmoq", "kuchaymoq", "ortmoq, qimmatlashmoq" ma'nolarini ifoda etmoqda.

Polisemantik so'zlarning bir guruhi yasovchi qo'shimchalarning ko'p ma'noliligi asosida hosil bo'lgan. Masalan, **yog'li** yasalmasi: 1) "yog' yuqli" va 2) "seryog'" ma'nolarini anglatadi. **YOg'li** qo'lini sochiqqa arttdi. Dasturxonga **yog'li** palov keltirildi. Bunda **yog'li** so'zining ko'p ma'noli bo'lishiga **-li** qo'shimchasining polisemantikligi sabab bo'lgan. **Gulchi** so'zi – "gul ekib, uni etishtiruvchi" va "gul sotuvchi" (gulfurush) ma'nolarini bildiradi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. *So'zning semantik tarkibiga nimalar kiradi?*
2. *Leksik ma'no nima?*
3. *Tushuncha nima?*
4. *Leksik ma'noning qanday turlarini bilasiz?*
5. *Qanday ma'nolar nominativ ma'no, qanday ma'nolar majoziy ma'no deb ataladi?*
6. *Erkin va bog'li ma'nolarning bir-biridan farqini tushuntiring.*
7. *Qo'shimcha ottenka nima?*
8. *Hissiy bo'yoq deganda nimani anglaysiz? Bunday bo'yoqli so'zlarni misollar asosida tushuntirib bering.*
9. *Uslubiy belgi nima? SHunday belgisi bor bo'lgan so'zlarga misollar toping.*
10. *Bir ma'noli suzlar deb nimaga aytiladi?*
11. *Ko'p ma'nolilik haqida so'zlang?*
12. *Polisemem suzlar qanday yo'llar bilan yuzaga keladi?*
13. *Ko'p ma'nolilikning yasama so'zlar vositasida yuzaga kelishiga misollar keltiring.*

ADABIYOTLAR

1. *SHoabdurahmonov SH. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980, 103-104-betlar.*
2. *Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992, 89-95-betlar.*
3. *O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 1981, 198-207-betlar.*
4. *Mirtojiev M. O'zbek tilida polisemiya. Toshkent, 1975.*
5. *Mirtojiev M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. Toshkent, 2002, 18-27-betlar.*
6. *Jamolxonov H., YUnusov R. Hozirgi o'zbek adabiy tili (ma'ruza matnlari). Toshkent, 2001, 7-11, 21-24-betlar.*
7. *O'zbek tilining izohli lug'ati. I va II jildlar. M., 1981.*
- Pinxasov YA. Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya va frazeologiya). Toshkent, 1969.*